

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
“XORIJIY MAMALAKATLAR IQTISODIYOTI  
VA MAMLAKATSHUNOSLIK” FAKULTETI  
“MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO`STLIGI VA YAQIN SHARQ  
MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI VA MAMLAKATSHUNOSLIGI”  
KAFEDRASI

*Qo`lyozma huquqida*

**ISOQOV UMID RO`ZIMUROD O`G`LI**

**SAUDIYA ARABISTONINING FORS KO`RFAZI  
MINTAQASI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O`RNI VA ROLI**

5321000 – “Xorijiy mamalakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik”

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:  
o`qituvchi Salayev D. S.  
Ilmiy maslahatchi:  
i.f.n., dots. Haqberdiyev Q. K.

Toshkent – 2015

*Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi*

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va  
mamlakatshunoslik” fakulteti dekani,  
i.f.n. Maxmudov E.A.

\_\_\_\_\_  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yil

“MDH va Yaqin Sharq mamlakatlari  
iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi”  
kafedrasini mudiri,  
i.f.n., dots. Ermamatov Sh. J.

\_\_\_\_\_  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yil

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I BOB. SAUDIYA ARABISTONI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI</b> .....	8
1.1. Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari . . . .	8
1.2. Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar . . . . .	21
<b>II BOB. SAUDIYA ARABISTONINING FORS KO'RFAZI MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI</b> .....	32
2.1 Saudiya Arabistoni – mintaqaviy iqtisodiy aloqalar tizimida .....	32
2.2 Saudiya Arabistonining Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari .....	41
2.3 O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari .	47
<b>XULOSA</b> .....	53
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	58

## KIRISH

**Mavzu dolzarbligi.** XX asrning oxirlarida Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan mamlakatlar tomonidan mavjud neft xomashyosining eksporti evaziga jamg'arilgan yirik kapitalga ega bo'lgan mamlakatlar jahon xo'jaligida moliyaviy jihatdan alohida o'z o'rniga ega bo'ldilar. Masalan Fors Ko'rfazi hududidagi Saudiya Arabistoni mamlakatining aynan iqtisodiy taraqqiyoti neft xomashyosi eksporti evaziga olingan xorijiy valyutalar tushumining milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarini rivojlantirishga yo'naltirdi.

Saudiya Arabistoni XX arsning 90-yillarida kichik „iqtisodiy mo'jiza“ ga erishgandan so'ng jahon xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'lib bordi. Shu o'rinda Saudiya Arabistonining mintaqa iqtisodiyotida muhim o'rin egallaganini alohida ta'kidlash lozim, xususan Saudiya mintaqa va jahonda yirik neft va gaz zaxiralariga ega bo'lib OPEC (Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti) tashkilotida asosiy neft narxlari ustidan nazorat qiluvchi mamlakat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek “Saudiya Arabistoni iqtisodiy jihatdan yuqori salohiyatga ega bo'lib jahon neft bozorida o'z o'rniga ega mamlakatdir”<sup>1</sup>.

Saudiya Arabistonini Fors ko'rfazi mintaqasida iqtisodiy salohiyati nisbatan qolgan mamlakatlardan yuqori va mintaqadagi FKADHK tashkilotida muhim o'ringa ega. Mintaqada Saudiya Arabistoni boshqa mamlakatlarga nisbatan qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarini rivojlanishi bo'yicha yuqori o'rinlarda turib Fors ko'rfazi mintaqasini jahon neft va gaz bozorida ham muhim rol o'ynashiga asosiy sabab Saudiyada yirik neft va gaz konlarining mavjulichida. Mintaqa eksporti va importi hajmida Saudiyaning ulushi yuqori bo'lib 2008-2009 yillarda Fors ko'rfazi mamlakatlari yalpi eksportining deyarli 50% ga yaqini Saudiya hissasiga to'g'ri keldi. OPEC tashkilotiga a'zo Fors ko'rfazi mamlakatlarini 2012-yilda neft eksporti hajmi 645 mlrd. AQSh dollar bo'lgan bo'lsa shuning deyarli 60% ga yaqini Saudiya Arabistoni hissasiga to'g'ri keladi. Shu yili Fors ko'rfazi

---

<sup>1</sup> I.Karimov. O'zbekiston-Saudiya Arabistoni: investitsion hamkorlikning rivojlanishi // “Xalq so'zi”, 04.06.2009 y.

mintaqasining YaIM miqdori 1,13 trln. dollarni tashkil etgan bo'lsa shuning 42% ga yaqini Saudiya Arabistoni hissasiga to'g'ri keladi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Fors ko'rfazi mintaqasi iqtisodiyotini jahon xo'jaligida tutgan o'rni va roli xorijlik iqtisodchi-olimlar – A.Ричардс, Дж.Уотербери, Яковлев А.И., М.Радески, Мунавваров З.И., J.Seznek, M.Nabli, T.Yosef, E. O'Sullivan, P.Rivlin, K.Genri va R.Sprinborgning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan<sup>2</sup>.

Saudiya Arabistoni mamlakatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, uning Fors ko'rfazi mintaqasi iqtisodiyotida tutgan o'rni va mintaqa mamlakatlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari kabi msalalar bo'yicha T.M. Вахитова, М.З. Гибадуллин, М.В. Панасюкларнинг ilmiy tadqiqot ishlarini takidlab o'tish joiz<sup>3</sup>. O'zbekistonni Fors ko'rfazi arab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risidagi masalalar iqtisodchi-olimlar А.К. Бедринцев, Бекмурадов А, Расулев А., Исламов Б va boshqalarning ilmiy asarlarida keng yoritilgan<sup>4</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Fors ko'rfazi mintaqasida Saudiya Arabistonining o'rni va rolini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy xususiyatlarini tahlil qilish
- Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarni va unga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqish;

---

<sup>2</sup> Ричардс А., Уотербери Дж. Политическая экономика Ближнего Востока. – Колорадо: Вествью Пресс, 1990.

<sup>3</sup> Панасюк М. Экономика и внешнеэкономическая деятельность исламских стран Ближнего и Среднего Востока: Учебное пособие / М.В. Панасюк. – Казань: ТГГПУ, 2008. – 192 с.; Гибадуллин М., Вахитова Т. Основы исламской экономики: теория и практика хозяйствования. Учебное пособие/ М.З.Гибадуллин. Казань: ТГГПУ, 2009. – 195 с.

<sup>4</sup> Бедринцев А. Узбекистан в мирохозяйственных связях: интеграционное взаимодействие //Мировая экономика и международные отношения. – 1999. – №2. – С. 99-103; Бекмурадов А., Хачиев Г. К вопросу о повышении эффективности экспортной деятельности предприятий // Экономическое обозрение. – 2001. №4. – С. 8-11.; Исламов Б. Особенности системной трансформации в Узбекистане и его интеграции в мировое хозяйство // Экономика и класс собственников. – 2002. – №1. – С. 10-12.; Расулев А. Внешнеэкономическая деятельность Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы // Рынок, деньги и кредит. – 1997. – №6. – С. 8-12.

- Saudiya Arabistoni va Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari dinamikasini tahlil qilish asosida unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- Mintaqaviy savdo aloqalarida Saudiyaning o'rni va rolini ko'rsatish;
- O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini tahlil etish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti** sifatida Fors ko'rfazi mintaqasida Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti bilan savdo-iqtisodiy aloqalari tanlab olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** bo'lib Saudiya Arabistonini Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarining tahlili hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda aks ettirilgan ilmiy fikr-mulohazalar va tavsiyalar mamlakatimiz tashqi savdo faoliyatini yanada rivojlantirishda qo'llanishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarida, xususan "Arab mamlakatlari iqtisodiyoti", "Xorijiy sharq mamlakatlarida sanoatlashtirish va integratsiya muammolari", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kabi fanlardan maruza matnlarini tayyorlashda ham foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, uning amaliy-nazariy ahamiyati yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning „Saudiya Arabistoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati“ deb nomlangan birinchi bobida Saudiya Arabistonini makroiqtisodiy ko'rsatgichlari YaIM, eksport-import hajmi va tarkibi, inflyatsiya ko'rsatgichlari, iqtisodiyotni tarmoq tarkibidagi o'zgarishlari tahlillar yordamida aniqlashtirildi.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobi „Saudiya Arabistonini Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari“ deb nomlanib bu bobda Saudiyaning

mintaqadagi iqtisodiy aloqalar tizimida tutgan o'rnini xususan mintaqaviy eksport-importidagi, OPEC ga a'zo Fors ko'rfazi mamlakatlari jami neft eksportidagi ulushi tahlil qilingan. Shuningdek Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari ya'ni Saudiyaning Fors ko'rfazi mamlakatlariga eksport, import hajmi uning tarkibi va O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlarining o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalari ko'rib chiqilgan.

## **I BOB. SAUDIYA ARABISTONI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI**

### **1.1. Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari**

Saudiya Arabistoni (Al-Mamlyaka al-Arabiya as-Saudiya) Fors ko'rfazi mintaqasidagi eng yirik davlat bo'lib, uning hududi – salkam 2,4 mln. kv. km.ni tashkil qiladi (uning janubida va janubi–sharqida haligacha aniq belgilangan chegaralar yo'q). Sanoati rivojlangan yirik industrial shaharlar qatoriga Jubayl, Yanbi, Ar-Riyod, Jidda, Dammam, Al-Qossim, Al-Axsa va Makka shaharlari kiradi. Arab olami va saudiyalik fuqarolar Saudiya Arabistoni hududini, Arabiston yarim orolini - “Arablar oroli” deb atashadi. Saudiya Arabistoni hududining cho'l hududlarida chegaralar hali aniqlanmagan. U Iordaniya, Iroq, Quvayt, Qatar, Birlashgan Arab Amirligi, Ummon va Yaman mamlakatlari bilan chegaradoshdir.

1902 yilda Abdul Aziz Bin Abdul Raxman Al Saud Ar-Riyodni bosib olganidan so'ng salkam 30 yil mobaynida Arabiston yarim orolidagi hududlarni birlashtirishni amalga oshirdi. 1932 yildan boshlab rasman Saudiya Arabistoni Qirolligi deb nomlangan. Uning aholisi soni 2013 yil holatiga ko'ra 29,356 ming kishini tashkil qilib, aholi sonining 8,790 minggini migrant aholi tashkil qiladi. Aholining o'sish darajasi 2,5 foiz, ishsizlik darjasi esa 12 foizdir. Hozirgi kunda Saudiya Arabistonining turli iqtisodiyot sohalarida 8 millionga yaqin xorijlik fuqarolar mehnat qilishadi. Birgina Yaman mamlakatidan rasmiy ravishda Saudiya Arabistoni mamlakatida faoliyat ko'rsatayotgan ishchilarning soni 4 million 168 ming kishini tashkil qiladi<sup>5</sup>.

Xalqaro valyuta fondining bashoratiga ko'ra, uning aholisi 2020-yilda 33 mln.ga yetadi. Demak, uning iste'mol bozori tobora kengayib boradi va “haj” mavsumiga keladigan xorijiy fuqarolarning soni salkam 5 mln.kishiga yetishi

---

<sup>5</sup> Report on Global Research Economy. Saudi Arabia, 2012.

taxmin qilingan. Bugungi kunda faqat yoqilg‘i-energetika sohasining o‘ziga yiliga o‘rtacha 150 mlrd. AQSH dollari sarflanmoqda<sup>6</sup>.

Poytaxt Ar-Riyod shahri bo‘lib, uning aholi soni salkam 7 mln.kishini tashkil qiladi (6,837 ming.kishidir). E‘tiborlisi, 1930 yilda Ar-Riyodda atigi 35 ming aholi istiqomat qilgan xolos. Milliy valyutasi saudiya rialini hisoblab 1 saudiya rialini 0,27 AQSH dollariga teng yoki 1 AQSH dollari – 3,75 saudiya rialiga tengdir<sup>7</sup>. 1930 yilda Saudiya Arabistoni hududida eng birinchi neft koni topilgach, mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi “yangi hayot davri”, ya’ni real iqtisodiy rivojlanish davri boshlangan, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi, albatta. 1933-yilning may oyida eng birinchi bo‘lib «Standart oil of Kaliforniya» va yilning oxirlariga kelib AQSHning ARAMKO neft kompaniyalari konsessiya shartnomasi asosida o‘z faoliyatlarini boshladi (hozirgi kunda Saudiya Aramko kompaniyasi maxalliy kompaniyadir). Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, 1930 yilda Saudiya Arabistoni hududida eng birinchi neft koni topilgan bo‘lsa, uni qazish hajmlari yildan-yilga juda yuqori miqdorlarda ko‘payib bormoqda. Masalan, 1938 yilda 0,5 mln.barrel qazilgan bo‘lsa, 1970 yilga kelib 2772,7 mln. barrelga, 2010 yilda esa qariyb 10 mln.barrelga etdi.

Saudiya Arabistoni mamlakati iqtisodiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va bosqichlari mavjuddir. Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Fors ko‘rfazi mintaqasida, jumladan Arabiston yarim orolida yirik neft konlari aniqlangach, jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, AQSH va Buyuk Britaniya neft kompaniyalarining mazkur orolga bo‘lgan iqtisodiy siyosati va qiziqishi kuchaydi. Shu sababli ham, Buyuk Britaniyaning bir qator yirik neft kompaniyalari tomonidan ushbu hududda birinchilardan bo‘lib neft qidiruv ishlarini va mavjud neft konlaridan qazish faoliyatlarini tashkil etdi. Milliy iqtisodiyotda neft evaziga olingan xorijiy valyutalarning asosiy qismi Podshohlikning infratuzilmasini rivojlanishiga sarflandi. Masalan, har 5 yillik davlat rejasida o‘rtacha 1100 km lik masofadagi

---

<sup>6</sup> www.imf.org - Xalqaro valyuta fondi rasmiy saytidan olingan ma’lumot

<sup>7</sup> www.wto.org - Jahon savdo tashkiloti rasmiy saytidan olingan ma’lumot

qattiq qoplamalik avtomobil yo'llari, yangi zamonaviy binolar va yirik osmono'par inshootlar, maktablar, bog'chalar va o'nlab sanoat korxonalari bunyod qilinmoqda.

O'tgan 50 yil davr ichida qishloq xo'jaligi sohalari unchalik rivojlanmagan agrar davlat jahondagi yirik industrial mamlakatlarning biriga aylandi. 1970 yilda (hijriy-1390 yil) Saudiya Arabistoni hukumati tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda "5 yillik" davlat rejalaridan samarali foydalandi va aynan shu yili 1971-1975 yillarga mo'ljallangan 1-5 yillik davlat dasturini tadbqiq qildi. Hukumat o'z oldiga Podshohlik hududi iqtisodiyotning keng tarmoqli rivojlanishini hamda, eng muhimi, xom-ashyolarni qayta ishlashga e'tiborni qaratgan holda zamonaviy sanoat tarmoqlarini tashkil qilishni o'z oldiga maqsad qildi. 1980-yillarning boshlarida jahon xo'jaligida yuzaga kelgan neft inqirozlari natijasida milliy iqtisodiyotda neftga bog'lanib qolgan ko'plab korxonalarda diversifikatsiya jarayonlarining tezlashishiga olib keldi.

Saudiya Arabistoni milliy iqtisodiyoti tarixida misli ko'rilmagan "tez iqtisodiy taraqqiyot" davri hamda mamlakatning ishga yaroqli aholini ish bilan to'la ta'minlash masalasini 100 foiz miqdorida "6-besh yillik" rejasida hal qildi. "6-besh yillik" davlat rejasi 1996-2000-yillarga mo'ljallangan edi. Ushbu "tez iqtisodiy taraqqiyot" davridagi "6-besh yillik" davlat rejasida quyidagi asosiy maqsad va vazifalar belgilanib olingan edi:

- 1.Mamlakatning barcha fuqarolarini savodxonlik darajasi va ishchi-mutaxassislarni to'liq qayta malakasini oshirish. Bu vazifaning asosiy maqsadi – zamonaviy sanoat tarmoqlarini samarali faoliyat olib borishida va yangi texnologiyalar bilan ishlashda malakali mutaxassislarni to'liq qayta tayyorlashdan iborat bo'ldi;

- 2.Milliy iqtisodiyotda xususiy sektorni rivojlantirish.

- 3.Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy loyihalarga xorijiy va mahalliy xususiy investorlarni jalb qilishni kengaytirish;

Saudiya Arabistoni hukumatining bugungi kundagi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda olib borayotgan iqtisodiy – ijtimoiy siyosati quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan:

- islom boyliklarini e'zozlash va saqlash hamda iqtisodiy taraqqiyotni islom tamoyillariga asoslangan holda olib borish;
- milliy xavfsizlikni va xalqning birligini saqlash;
- ijtimoiy ta'minotni kuchaytirish;
- inson salohiyatini rivojlantirish;
- mintaqaviy hududlar o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot darajalari o'rtasidagi tafovutlarga barham berish;
- milliy iqtisodiyot taraqqiyotida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni yanada kuchaytirish;

Neft sohasi milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etsa-da, neft sohasidan tashqari Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining rivojlanishiga sabab bo'lgan quyidagi xususiyatlar aniqlandi va ular quyidagilardan iborat.

1) Mamlakatning iqtisodiy-geografik jihatdan qulay joylashganligi.

Saudiya Arabistoni hududining iqtisodiy-geografik holati ancha qulay bo'lib, u yarimorol deb ham ataladi. Saudiya Arabistoni Arabiston yarim orolining katta qismini egallagan bo'lib, uning uch tomonini Fors, Ummon, Aden ko'rfazlari hamda Arabiston va Qizil dengizlari yuvib turadi. Mamlakatning neft va gaz xom ashyolarini jahon bozoriga olib chiqishida suv transporti muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, 1869-yili Misrdagi Suvaysh kanali ishga tushgandan keyin Saudiya Arabistonining tashqi iqtisodiy faoliyati yanada rivojlandi va bir qator xalqaro dengiz-portlari tashkil qilindi va qurildi.

2) Saudiya Arabistoni iqtisodiyotiga xorijiy texnologiya va xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi.

Milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga, asosan neft va gaz sohalariga jahonning yirik kompaniyalar tomonidan zamonaviy texnologiyalar hamda yangi neft va gaz konlarini qidirish ishlariga xorijiy sarmoyalar jalb etildi. Xorijiy texnologiyalar asosan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlardan jalb etildi.

3) Neft-gaz mahsulotlarning chetga eksport qilinishi.

Mamlakatdagi qazib chiqarilayotgan neft va gaz mahsulotlarining deyarli 88

foizi xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda<sup>8</sup>. Lekin ba'zi eksport jarayonlarida mamlakatlarning tashqi savdosiga tashqi muhitning ta'siri ham rol o'ynamoqda. Jumladan, 2008 yilning oktyabr-dekabr oylarida neft narxining jahon bozorida tushib ketganligi sababli Fors ko'rfazi arab mamlakatlarining neft eksporti hajmini pasayishiga olib keldi. Neft eksporti miqdori bo'yicha Saudiya Arabistoni jahonda Rossiya mamlakati bilan yetakchilikni o'z qo'liga olgan.

#### 4) Xizmat ko'rsatish sohalari va turizm sohasining rivojlanishi.

So'nggi yillarda jahon sayyohlarini Saudiya Arabistoni mamlakatiga jalb etish, qirg'oqbo'yi hududlarda yirik turistik markazlarni tashqil qilish va qurish kabi ishlarni muvaffaqiyatli olib borishlari natijasida xalqaro turizm sohasi tez rivojlanib bormoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, jahon ommasi Saudiya Arabistonining iqtisodiy o'sishini faqatgina neft xomashyosiga bog'lashadi. To'g'ri, lekin yaqin istiqbol yillarda neft sohasining o'rniga milliy iqtisodiyotning eng asosiy daromad keltiruvchi tarmoq sifatida xizmat ko'rsatish sohasi bo'lishi kutilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi turizm, xajga boradiganlarga xizmat ko'rsatish va avia xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan katta daromad oladi.

5) Saudiya Arabistoni milliy iqtisodiyotida tabiiy resurslarning, ya'ni neft va gaz xomashyosining ustuvor ahamiyati.

2001 yilda OPEK tashkiloti mutaxasislari quyidagi tahliliy fikrni berishgan edilar, "agar Saudiya Arabistonida neft xomashyosini qazib chiqarish miqdori 2000 yilgi miqdorda bo'lsa, mamlakatning neft xomashyosi yana 86 yilga etadi" deb istiqbol berilgan edi<sup>9</sup>. Masalan, 2002 yilda jami 7 mln barrel neft qazib chiqarilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 12 mln barrelga yetganligiga ishonch hosil qilamiz, chunki so'nggi yillardagi jahon xo'jaligidagi neft inqirozlari sabab Saudiya Arabistoni neft xomashyosini kunlik qazib chiqarish miqdorini oshirib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, neft zaxira resurslarini hisobga olganda Saudiya neft qazib olishni yarim yilda 30-35 foizga oshirib, 1 kunda o'rta

---

<sup>8</sup> В. Озолинг. Экономика Саудовской Аравии. – М.: Наука, 1975, - 206 с.

<sup>9</sup> www.opec.org - Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti rasmiy saytidan olingan ma'lumot.

hisobda 15 mln.barrelgacha neft qazib chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin<sup>10</sup>.

6) Xukumat tomonidan samarali iqtisodiy isloxlarni va dasturlarni olib borilishi.

a) Saudiya Arabistoni xukumati 1970 yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rejali rivojlantirish iqtisodiy dasturlaridan samarali foydalanmoqda. Chunki qabul qilinayotgan "5 yillik" davlat dasturlarida asosiy iqtisodiy isloxtlar va dasturlar sanoatlashtirish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarini rivojlantirishga qaratildi.


b) "Industri-2020" davlat dasturi.

Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti hozirda to'liq neft sektoriga bog'liq bo'lib, YaIM ning deyarli yarmini neftkimyo mahsulotlari tashkil etadi. Mamlakat jahonda yirik neft zaxirasiga ega (dunyo zaxirasining j qismi) va uning kunlik neft qazib chiqarish hajmi 8,4 mln barrelni tashkil etib Rossiyadan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Neft va neft mahsulotlari eksportning 85% ini, davlat budjetining 90% ini tashkil etmoqda. 2003-yildan 2008-yilgi inqiroz davrigacha Saudiya iqtisodiyoti barqaror o'sish ko'rsatkichlarini ifodaladi. Iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini ifodalab beruvchi ko'rsatkichlardan biri YaIM bo'lib 2000-2009 yillarda Saudiya YaIMni ko'radigan bo'lsak quyidagi tendensiya kuzatildi: 2000-yildan boshlab nominal YaIM miqdori barqaror o'sish suratiga ega bo'ldi va 2008-yilda o'zining rekord ko'rsatkichini ifodaladi(476,6 mlrd AQSh doll). Bundan keyingi davrda ya'ni jahon moliyaviy inqirozida mineral resurslarga bo'lgan talabning kamayishi sabab YaIM pasayishi kuzatildi. 2008-yil bilan solishtirib ko'radigan bo'lsak YaIM miqdori 22% ga pasaydi. Mamlakatga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2009-yilda 10,5 mlrd. AQSh dollargacha pasaydi bu ko'rsatkich 2008-yilda 39,5 mlrd dollarni tashkil etgan. 2008-yilgacha bo'lgan davrda Saudiya Arabistoni iqtisodiy rivojlanishi ancha ijobiy bo'ldi va o'rtacha yiliga 4% o'sish ko'rsatigichiga ega bo'ldi. Jahon moliyaviy inqirozi sabab keyingi yilda neftning narxi 150\$ barreldan 40\$ barrelga tushib qoldi. Bu

---

<sup>10</sup> J. Griffin, A. Fantini. 2014 World Oil Outlook. Vena: OPEC, 2014. P. 34

jarayon Saudiya Arabistoni real YaIM ga ta'sir qildi va 2009-yilda 1,8% o'sish ko'rsatkichini ijodaladi (1.1.1-rasm). Keyingi yilda esa jahon neft bozorida neftga bo'lgan talabning ortganligi bois real YaIM ni o'sish ko'rsatkichi 7,4% ni ifodaladi.




Manba: Xalqaro Valyuta Fondi rasmiy sayti ([www.imf.org](http://www.imf.org)) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

### 1.1.1-rasm Saudiya Arabistoni nominal YaIM va uning o'sish ko'rsatkichlari (mlrd. AQSh dollari)

Yuqorida rasm ma'lumotlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak 2009-yilda real YaIM o'sishi nisbatan past ko'rsatkichni ifodalamoqda. Bunga asosiy sabab qilib neft narxining keskin ravishda tushib ketishini aytishimiz mumkin. 2010-yilda neft narxi 77,8 dollar/barrelni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2009-yilda 59 dollarga pasaydi. 2011-yildan boshlab Saudiya hukumati neft qazib chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirdi. Sababi Shimoliy Afrikadagi neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda siyosiy inqiroz yuzaga keldi. 2013-yilda neft sektori ham neftdan tashqari sektor ham qisqarganligi bois Saudiya iqtisodiyoti pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2014-yilda esa neft narxi nisbatan barqarorlashganligi uchun YaIM o'sishi 4,1% ga teng bo'ldi.

Forz ko'rfazi mintaqasida Saudiya Arabistoni boshqa arab mamlakatlariga nisbatan iqtisodiyoti rivojlangan bo'lib, asosiy donor tarmoq neft hisoblanadi.

Aholi jon boshiga YaIM miqdorini ko'radigan bo'lsak, 2009-yilda o'sish nisbatan past ko'rsatkichlarni ifodaladi (1.1.2-rasm). Bunga sabab 2008-yilgi moliyaviy inqiroz bo'ldi. Jahon bankining malumotiga ko'ra, 2013-yilda aholi jon boshiga YaIM Saudiya Arabistonida 25,7 ming AQSh dollarni tashkil etgan. Mintaqada Qatar bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori o'rinlarda turgan bo'lsa undan keyingi o'rinlarda Quvayt, BAA kabi mamlakatlar turibdi.




Manba: Jahon banki rasmiy sayti (worldbank.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

### 1.1.2-rasm. Fors ko'rfazi mamlakatlarida aholi jon boshiga YaIM miqdori (ming AQSh dollarda)

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak 2008-yilda aholi jon boshiga YaIM ning miqdori bo'yicha Saudiya Arabistoni mintaqada oxirgi o'rinlarda turibdi. 2008-yilda 19700 dollarni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2009-yilda 16000 dollarga yrtgan. 2010-yildan boshlab o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Fors ko'rfazi mintaqasida inflyatsiya ko'rsatkichlarini o'sish sur'atlari 2003-yilda neft narxlari keskin ko'tarilishi sababli boshlandi. Saudiya Arabistoni pul birligi rial AQSh dollariga ko'p jihatdan bog'liq. AQSh Dollar bilan birga mahalliy valyuta kursining tushishi import mahsulotlari narxlarini oshishiga imkon yaratadi. Inflyatsiya ko'rsatkichi 2009-yilda 10,7% ni tashkil etib oxirgi 30 yil ichida bu rekord ko'rsatkichni ifodaladi(1.1.3-rasm). Mamlakatda inflyatsiya ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga asosiy sabablardan yana biri bu ijara narxlarini yuqoriligi. Turmush darajasi indeksi tarkibini ko'radigan bo'lsak 2009-yilda ijara,

yonilg'i, suv kategoriyalari bo'yicha narx 14,2% gacha oshdi, 2008-yilda o'sish 7,6% ni tashkil etgan<sup>11</sup>. Saudiya Arabistonini qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishini imkonini yo'qligi uni bu mahsulotlarni yirik miqdorda xorijdan import qilishga majbur qiladi. 2011-yilning mart oyida o'rtacha inflyatsiya ko'rsatkichi 4,7% gacha pasaydi. Oziq-ovqat narxlari rekonstruksiya va ijara xarajatlari istemol savatchasining asosiy qismini tashkil etib bu Saudiyada inflyatsiyaga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.



Manba: Saudiya Arabistoni Valyuta Agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

### 1.1.3-rasm. Saudiya Arabistoni inflyatsiya ko'rsatkichlari dinamikasi

Inflyatsiya 2013-yilda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi sababi oziq-ovqat narxlari oshdi. 2012-yilda bu ko'rsatkich 2.9% ni tashkil etgan edi. Inflyatsiya statistikasi markaziy boshqarmasi malumotiga ko'ra 2013-yilning dastlabki 11 oyida inflyatsiya 3.6% ni tashkil etdi o'tgan yili xuddi shu davrda 3.5% ga teng bo'lgan. 2013-yilning birinchi yarmida istemol xarajatlarini oshishi inflyatsiyani tezlashishiga sabab bo'ldi, xususan kiyim-kechak va oyoq kiyim 1.4%, uy-joy, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'ilar 3.5%, sog'liqni saqlash 3.2%, transport 2.5%, telekommunikatsiya 1.8%, madaniy hordiq chiqarish uchun narxlar 1.7% ga oshdi.

<sup>11</sup> www.sama.gov.sa - Saudiya Arabistoni Valyuta Agentligi rasmiy saytidan olingan ma'lumot.

Neft va neft mahsulotlari yalpi eksportning asosiy ulushini tashkil etadi. Saudiya Arabistoni neft qazib chiqarish hajmini oshirishga asosiy sabablardan biri AQShning Eronga bergan sanksiyasi bo'lsa ikkinchi sabab Liviyadagi tartibsizliklar bo'ldi. Bunday geosiyosiy tartibsizliklar neft narxiga tasir qildi, natijada neft ishlab chiqarishni hajmini o'sishi va ko'tarilishi valyuta zaxirasi hajmini oshirdi. Valyuta zaxirasining YaIM dagi ulushi 2013-yilda 2012-yildagiga nisbatan 22.4%dan 17.4% ga kamaydi.

2009-yil davomida neft narxlari pasaydi va uni ishlab chiqarish hajmi qisqardi natijada neft eksporti o'rtacha 41,2% gacha tushdi. Jahon xo'jaligida 2010-yilda neft narxlarining oshib ketganligi bois Saudiya Arabistonining neft va neftdan tashqari eksport mahsulotlari hajmi 23,0% va 22,6% ga o'sdi<sup>12</sup>. Eksport tarkibini ko'radigan bo'lsak mineral resurslar asosiy o'rinni egallab 2005-2009 yillar davomida jami eksportning o'rtacha 88% ini tashkil etgan(1.1.1-jadval). Mineral resurslar tarkibi 2006-2008-yillar oralig'ida o'rtacha 20,8% ga o'sdi 2009-yilda esa keskin pasaydi.

**1.1.1-jadval**  
**Saudiya Arabistoni eksport tarkibining o'zgarishi, (% hisobida)**

<b>Eksport tarkibi</b>	<b>2008</b>	<b>2009</b>	<b>2010</b>	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	0	0	0	0	0	0
Oziq-ovqat mahsulotlari	0	1	1	1	1	1
<b>Yoqilg'i va neft mahsulotlari</b>	<b>91</b>	<b>81</b>	<b>87</b>	<b>89</b>	<b>88</b>	<b>87</b>
Qayta ishlash mahsulotlari	6	8	11	9	10	11
Qora va rangli metallar	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1	0,4
Boshqalar	2,9	9,9	0,8	0,9	0,9	0,6

Manba: Jahon banki rasmiy sayti (worldbank.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak eksport tarkibida asosiy ulushni yoqilg'i va neft mahsulotlari tashkil etmoqda. 2008-yilda uning eksport

<sup>12</sup> SAMA, Ministry of Economy & Planning, Ministry of Finance, Tadawul, & Global Research

tarkibidagi ulushi 91% ni tashkil etgan bo'lsa 2009-yilda 81% ga yetdi. 2009-yildan boshlab esa o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Undan keyingi o'rinlarda esa qayta ishlash sanoati asosiy o'rinni egallagan. Qayta ishlash sanoati tarkibida asosiy o'rinni kimyo mahsulotlari, tekstil, texnika-texnologiya va oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Saudiya Arabistonida qishloq xo'jaligi rivojlanmagani sababli mamlakat bu mahsulotlarni umuman eksport qilmaydi. Qayta ishlash sanoati tarkibida neftni qayta ishlash sohasi asosiy o'rinni egallab 2008-yilda uning ulushi keskin pasaydi va 2009-yilda o'sish tendensiyasi kuzatildi. 2010-yilda 11%, 2011-yilda 9% va 2012-yilda esa 10% ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari eksportidagi ulushi 2008-yilda tashkil etgan bo'lsa 2009-yildan boshlab bu ko'rsatkich 1% ga yetdi.

**1.1.2-jadval**


**Saudiya Arabistoni import tarkibining o'zgarishi, (% hisobida)**

<b>Import tarkibi</b>	<b>2008</b>	<b>2009</b>	<b>2010</b>	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	0	0	1	1	1	1
Oziq-ovqat mahsulotlari	11	11	16	15	14	15
Yoqilg'i va neft mahsulotlari	0	0	0	0	0	1
<b>Qayta ishlash mahsulotlari</b>	<b>36</b>	<b>36</b>	<b>77</b>	<b>77</b>	<b>78</b>	<b>79</b>
Qora va rangli metallar	4	3	5	5	5	4
Boshqalar	46	50	1	2	0	0

Manba: Jahon banki rasmiy sayti (worldbank.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Import tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak asosiy ulushni qayta ishlash sanoati mahsulotlari tashkil etadi(1.1.2-jadval). 2008-2009 yillarda uning ulushi ancha past bo'lgan 2010-yildan boshlab uning import tarkibidagi ulushi o'sishni boshladi. Qayta ishlash sanoati mahsulotlari ichida transport va elektron mahsulotlari ehtiyot qismlar va kimyoviy mahsulotlar asosiy o'rinni egallagan. Qayta ishlash sanoati mahsulotlaridan keyingi o'rinni oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. 2008-2009 yillarda ketma-ket 11% ni tashkil etgan bo'lsa 2010-yildan boshlab uning ulushi

o'sishni boshladi. 2009-yilda qayta ishlash sanoati mahsulotlari tarkibidagi transport ehtiyot qismlari ulushi 17,4% gacha pasaydi va jami qisqarish 19,8% ni tashkil etdi. 2009-yilda elektron texnika va transportlarga bo'lgan ichki talab keskin tushib ketdi va bu yilda umumiy eksport hajmi 40,1% ga pasaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini asosan mintaqadagi qolgan mamlakatlardan va Yevropa Ittifoqidan import qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi 2010-yildan boshlab importdagi ulushi 1% ni tashkil etishni boshladi.



Manba: Jahon banki rasmiy sayti (worldbank.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

#### 1.1.4-rasm. Saudiya Arabistoni tashqi savdo aylanmasining hajmi va dinamikasi (mlrd. dollar)

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak 2008-yilda ro'y bergan jahon moliyaviy inqirozi Fors ko'rfazi xususan Saudiya Arabistoniga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi (1.1.4-rasm). 2008-yilda yalpi eksport hajmi 322,9 mlrd AQSh dollari tashkil etgan bo'lsa 2009-yilda bu ko'rsatkich 202,6 mlrd AQSh dollarga yetdi. Importda ham pasayish tendensiyasi kuzatiladi. 2009-yilda neft narxining tushishi va uni ishlab chiqarish hajmini pasayishi sabab umumiy eksport hajmi yil davomida 38,7% ga pasaydi. 2010-yilda esa jahon neft bozorida narxlar ko'tarilishni boshladi va Saudiya Arabistoni eksport hajmi 23% o'sdi.

Neft eksporti va neftdan tashqari eksport hajmi o'zining rekord o'sish ko'rsatkichiga erishdi. Savdo sohasida 2013-yildagi ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarmadi. 2013-yilda eksport hajmi 387,6 mlrd AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2012-yilda 399,4 mlrd AQSh dollar, 2011-yilda esa 376,2 mlrd AQSh dollarga yetdi. 2013-yilda neftning o'rtacha narxi 103,15 dollar barrelni 2012-yildagiga (101,34 b/d) nisbatan 1,8% ga yuqori bo'ldi.

Osiyo va Uzoq Sharqqa mintaqasiga qilinadigan neft xom ashyosi eksporti deyarli o'zgarmagan bo'lsa Shimoliy Amerikaga yo'nalgan eksport 2,2% ga, G'arbiy Yevropaga qilingan eksport 4,2% va Yaqin Sharqqa qilingan eksport 3,3% ga pasaydi. Neftdan tashqari eksport jami eksportning 14% ini tashkil etib 2013-yilda o'sish sur'ati 6% ga 2012-yilda 8,4% ga yetgan edi. Neftdan tashqari eksport darajasini pasayishiga sabab uning tarkibidagi kimyo mahsulotlarini darajasi deyarli o'zgarmaganligi, xususan, 2012-yilda 9,3% ga o'sgan bo'lsa 2013-yilda ancha past ko'rsatkichga 2,6% ga o'sgan. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari 2013-yilda 1,7% li salbiy o'sishga erishdi, bu ko'rsatkich 2012-yilda 2,0% ga yetgan. 2013-yilda import 229,3 mlrd dollarni tashkil etib 2012-yilga nisbatan 8,1% ga o'sgan va yil davomida 18,2% gacha o'sdi. Import tarkibini ko'radigan bo'lsak ba'zi bir mahsulot turlari hajmida kamayish kuzatildi, xususan, kimyo mahsulotlari (jaming 8%), tekstil va tekstil mahsulotlari (3%), elektr jihozlari (26%), temir va temir mahsulotlari (12%) va transport ehtiyot qismlari (17%)<sup>13</sup>.

Fors ko'rfazi mamlakatlarini importining geografik tarkibini ko'radigan bo'lsak mintaqada yirik importyor mamlakatlar 2005-yilda Saudiya Arabistoni va BAA mamlakatlari hisoblanib bularning asosiy import hamkorlari Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh va Yaponiya bo'lib 2013-yilda Saudiya importining 14,8% AQShga 9,0% esa Yaponiya hissasiga to'g'ri keladi.

---

<sup>13</sup> Al-Shahid Tower, Khalid Bin Al-Waleed. Saudi Arabia Economic Brief and Outlook. June 2012.

## 1.2. Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar

Milliy iqtisodiyotda neft-gaz sanoatdan tashqari boshqa sanoat tarmoqlari ham rivojlangan. Jumladan, neftni qayta ishlash, kimyo, kemasozlik, samolyotsozlik kabi sohalar ham rivojlanib ushbu sanoat tarmoqlarida neft mahsulotlari, amiyak, suyultirilgan gaz, sement, mineral o'g'itlar, plastmassa, metall, kema ta'miri, kemalar va samolyotlar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining qurilish, kema va samolyotlar ta'miri, turizm va bank-moliya sohalarini rivojlanishi bilan Saudiya Arabistoni jahondagi eng tez rivojlanayotgan mamlakatlarning biriga aylandi.

Milliy iqtisodiyotda neft sanoatining rivojlanib borishi natijasida hududlarda bir qator yangi shaharlar qad ko'tara boshladi. Masalan, Daxran, Fors ko'rfazi qirg'oqbo'yida joylashgan Dammam va Al-Jubayl port-shaharlarini misol qilishimiz mumkin. Bundan 20 yil oldin ham Qizil dengiz sohilidagi Yanba shahri xorijiy mamlakatlardan xaj safariga kelayotgan mehmonlar uchun ixtisoslashtirilgan bo'lsa, hozirda ushbu shahar mamlakatdagi yirik industrial sanoat shaharlarning biriga aylandi. Mamlakatdagi barcha tog'-konlardagi faoliyatlar ustidan Saudiya Arabistoni Tog'-kon qazish kompaniyasi o'z nazoratini o'rnatgan. Ushbu kompaniyaning maqsadi – milliy iqtisodiyotda tog'-kon qazish sanoatini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu sanoat tarmog'i 2002-2010 yillar mobaynida iqtisodiy o'sishi yiliga o'rtacha 9 % ga yetdi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 4,1% ni tashkil qilmoqda.<sup>14</sup>

Ko'plab neft konlari xorijiy investorlarga, jumladan AQSH, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning bir qator yirik neft kompaniyalari uzoq yillarga mo'ljallangan shartnomasi asosida, ya'ni konsessiya shartnomasi asosida taqdim etilgan. Konsessiya tushunchasi-bu chet ellik investorga xo'jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug'ullanish uchun davlat tomonidan beriladigan ruxsatnoma bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirish uchun davlat chet ellik investorga konsessiya shartnomasi tuzish asosida molk-mulk, yer va yer-osti ob'ektlarini chet

---

<sup>14</sup> Saudi Arabia: Mid-Year Economic Review and Forecast, 2011-2013, Report Series July 2011.

ellik investorga topshiradi. Konsessiyachi, ya'ni bu konsessiya shartnomasini tuzgan chet ellik sarmoyador.<sup>15</sup> Fors ko'rfazi mamlakatlari iqtisodiyotning sanoat sohasini rivojlantirishdan ko'ra xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishmoqda. Jahon tajribasidan ma'lumki iqtisodiyotni sanoat sohasi rivoji mamlakatni jahon bozoriga kirib borishini taminlaydi. Mintaqada qishloq xo'jaligini rivojlantirishni deyarli iloji yo'q sababi iqlim sharoiti mos emas lekin shunday bo'lsada Saudiya Arabistoni qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun Xindistondan tuproq import qilishni yo'lga qo'ygan, va bu xodisa jahon xo'jaligida yangilik edi.

Yaponiya ham Xitoydan tuproq import qilishni yo'lga qo'ygan. Oxirgi yillarda Saudiya hukumati tomonidan qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida qator dasturlar qabul qilinmoqda, bu dasturlarning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlari importini yildan-yilga kamaytirishdan iborat. Saudiya Arabistoni iqtisodiy islohotlarni 70-yillardan boshlagan bo'lsa hukumat tomonidan dastlabki amalga oshirilgan islohotlardan biri bu iqtisodiyotni sanoatni sohasini rivojlantirish bo'ldi. Saudiyada sanoatni rivojlantirishda bir qancha muammolar ko'zga tashlandi, xususan, xorijiy texnologiyalar kirib kelishiga cheklovlar qo'yish, mahalliy kapital egalarini faqat xizmat ko'rsatish sohasiga sarmoya kiritishlari, xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga cheklovlar bo'lganligi sabab ichki sarmoyalarning tanqisligi kabi bir qator muammolar ko'zga tashlanadi. Hozirgi paytda sanoat mahsulotlari dunyoning 90 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilinadi.


Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti hozirda sezilarli darajada neft-gaz sanoatiga bog'liq bo'lib eksportining ham asosiy qismini aynan neft va gaz tashkil qiladi. Qolgan barcha sohalarning rivojlanishi jahon bozoridagi neftning narxiga bog'liq bo'lib hukumat neftdan kelgan daromadni asosiy qismini shu sohalarni rivojlanishiga sarflaydi. Mamlakat iqtisodiyoti neftga bog'liqligi sababli 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi Saudiya Arabistoni iqtisodiyotiga boshqa Fors

---

<sup>15</sup> Щегорцов В.А., Таран В.А. Мировая экономика. Мировая финансовая система. Международный финансовый контроль: Учебник.. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.

ko'rfazi mamlakatlariga nisbatan salbiy ta'sir qildi. OPEC ga a'zo mamlakatlar neft narxini bir xilda ushlab turish uchun uni qazib chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo'lishdi. 2008-yilda a'zo mamlakatlar kunlik neft qazib chiqarish hajmini 4,2 mln barrelgacha kamaytirishni kelishib olishdi. Bu Saudiya Arabistoni uchun neft qazib chiqarish hajmini 17% ga pasayganini anglatadi. Sanoatni qisqa 30 yil davomida rivojlanishi mamlakatni jahon xo'jaligida o'z o'rnini topishiga yordam berdi, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmi va uning jon boshiga to'g'ri kelishi, kishi boshiga ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi, sanoat mahsulotlari eksport hajmi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashdi.

Agar Saudiya Arabistoni yalpi ichki mahsulotining tarmoqlar bo'yicha tarkibini ko'radigan bo'lsak, unda sanoat ishlab chiqarishi asosiy o'rinni egallashining guvohi bo'lamiz (1.2.1-rasm). Ko'rinib turibdi, mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoat ishlab chiqarishining salmog'i boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha yuqori. Bu eng avvalo mamlakat iqtisodiyotida yoqilg'i sanoatining alohida o'ringa ega ekanligi bilan bog'liq. Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad iqtisodiyotning bir tomonlamaligiga, ya'ni neft tarmog'iga bog'liqligini pasaytirishdan iborat. XX asrning 50-yillaridan boshlab neft va gaz resurslarini intensiv o'zlashtirish Saudiya iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir qildi.



Manba: Jahon banki rasmiy sayti (worldbank.org) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

### 1.2.1-rasm. Saudiya Arabistoni YaIM ning tarmoq tarkibi (% hisobida)

Yuqoridagi rasmni tahlilini ko'radigan bo'lsak iqtisodiytni tarmoq tarkibi ichida sanoat yuqori o'ringa ega, undan keyingi o'rinlarda xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi turadi. Oxirgi 5 yil ichida neftdan tashqari sektor Saudiya Arabistonida o'zining muhimligi darajasini oshirmoqda. 2011-yilda hukumat tomonidan davlat subsidiyalarini hajmini oshirganligi sabab neftdan tashqari sektorning ulushi 5,4% gacha oshdi. Saudiya Arabistonida neftdan tashqari sektor hukumat tomonidan samarali diversifikatsiya jarayonlari olib borilayotgani sabab tez rivojlanib bormoqda. Lekin shunday bo'lsada bu sektorda o'sish 2012-yilda 7,2% ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2011-yilda 7,1% ga yetdi. Neftdan tashqari sektor tarkibidagi xususiy sektor ham davlat sektori ham sezilarli darajada pasaydi. SAMA (Saudi Arabian Monetary Agency) malumotiga ko'ra transport, kommunikatsiya sohalarida o'sish ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. 2012-yilda bu sektorda o'sish 10,7% ni tashkil etgan bo'lsa 2011-yilda esa o'sish 13,8% ga yetgan. Xususan qurilish sektorida ham o'sish tendensiyasi kuzatildi.

Sanoat tarkibini ko'radigan bo'lsak asosiy ulushni neft gaz sanoati tashkil etadi. Saudiya Arabistonida energetika siyosati ichki va tashqi komponentlarga bo'linadi. Ichki komponent asosan neftdan kelgan daromaddan milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va turmush darajasini oshirishga yo'naltiriladi. Asosiy neft qazish bilan shug'ullanuvchi kompaniya Saudiya Aramko Saudiya Arabistonida jami neft zaxiralarining 98% ini boshqaradi. Neftni qayta ishlash va neft kimyo sanoati bilan SABIC xususiy davlat kompaniyasi shug'ullanadi. Yaqin yillargacha Saudiya Arabistoni jahonda eng ko'p neft zaxirasiga ega mamlakat hisoblangan lekin 2010-yilda OPEC malumotida ko'ra Venesuela eng ko'p neft zaxirasiga egaligi aytili. Kelajak yillarda Saudiya Aramco kompaniyasi yiliga 750 mln tonnagacha neft qazib chiqarishi mumkinligi aytilmoqda. Hozirda Saudiya Arabistonini neft qazib chiqarish hajmi jahon bozoridagi neft xom ashyosining konyukturasiga bog'liq bo'lib qoldi.

2010-yilda jami eksportning 86% ini neft eksporti tashkil etgan. Saudiya Arabistoni yirik neft ishlab chiqaruvchi va uni eksportyori sifatida jahon neft

bozorida nufuzli o'ringa ega qolaversa Fors ko'rfazi mamlakatlari ichida neft zaxiralarining 57% ga, OPEC tashkilotida 29% va jahon neft zaxiralarining 20% ga ega<sup>16</sup>. Arab yonilg'isi 2010-yilda haftalik narxlari 32% gacha oshdi (77,8 b/d) 2009-yilda o'rtacha 1 barrel neft 59 \$ ni tashkil etgan<sup>17</sup>. Biroq neft narxlari 2011-yilning yanvaridan boshlab yana o'sishni boshladi bu paytda uning narxi barreli 111,16 \$ ni tashkil etgan. Jahon moliyaviy inqirozi natijasida 2009-yilda uglevodorod qazib chiqarish hajmi qisqargani ayon bo'lgandan so'ng Saudiya Arabistoni neft sektori 2010-yilda yana kengaydi.

XVF ning ma'lumotiga ko'ra neft sektori 2010-yilda real o'sish ko'rsatkichi 1,2% ni tashkil etgan va 2011 yilda 4,3% gacha o'sdi. 2009-yilda neft sektori joriy narxlarda YaIM ning 48% iga yetdi va hukumat daromadlarining asosiy qismini neftdan kelgan daromad tashkil qildi. 2012-yil Saudiya Arabistoni neft sektori uchun muhim yil bo'ldi. Haqiqatdan ham 2012-yilning birinchi 6 oyligida Saudiya Arabistoni o'zining neft ishlab chiqarish hajmini kuniga 10 mln barrelga oshirdi. Bu ko'rsatkich jahon neft bozorini barqaror ushlab turishga imkoniyat yaratadi. Ishlab chiqarish 2012-yilning ikkinchi yarmida pasaydi va oxirgi chorakda kunlik neft ishlab chiqarish hajmi 9,4 mln barrelni tashkil etdi. Umuman olganda 2012-yilda kunlik neft qazib chiqarish hajmi o'rtacha 9,76 mln barrelni tashkil etdi. Saudiya Arabistoni jami dunyo neft zaxirasining beshdan biriga ya'ni 265,9 mlrdga ega bo'lib uning zaxirasi taxminan 75 yilga yetishi taxmin qilingan. 2012-yilda neft ishlab chiqarish hajmining pasayishi nafaqat mamlakat tashqi savdosiga balki ichki bozoriga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Jami eksportning 87% ini tashkil etuvchi neft eksportining o'sishi 2010-yilda 32,0% ga, 2011-yilda 47,5% ga va 2012-yilda 6,2% ga pasaydi. Hukumat daromadlarining asosiy ulushini neft sektori tashkil etib 2011-yilda 54,3% dan 2012-yilda 10,7% ga pasaydi lekin haligacha hukumat daromadlarining 92% aynan neft sektori tashkil etadi<sup>18</sup>. Saudiya Arabistoni hukumatining iqtisodiy strategiyasida sanoat tarmoqlarini xilma-xillashtirish bosh o'rinlardan birini

---


<sup>16</sup> S.Barakat, Sarah F. Kansa Saudi Arabia Economic Report June 04, 2014

<sup>17</sup> GCC Economic Overview May 2014, Kuwait 2014.

<sup>18</sup> KAMCO Research & Central Department of Statistics, Saudi Arabia 2013.

egallaydi. Bu siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatning neftdan olinadigan daromadga qaramlik darajasini pasaytirishdan iborat. Saudiya neft xom ashyosini eksport qilishdan olinadigan daromadga bog'lanib qolishini kamaytirish, shuningdek, Podshohlikka boshqa davlatlardan import qilinadigan tovarlar miqdorini kamaytirish maqsadida hukumat turli xildagi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirmoqda.

Fors ko'rfazi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish davri 1970-yillarga to'g'ri keladi va bunda Saudiya hukumatini dastlabki qilgan islohotlari aynan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'ldi lekin bu jarayonda bir qancha muammolar ko'zga tashlandi: birinchidan mahalliy sarmoyalarni xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilishi, xorijdan texnologiya olib kirishga cheklovlar qo'yish bo'ldi. Saudiya hukumati kelajak yillarda iqtisodiyotni neft sektoriga bog'likligini kamaytirish maqsadida bir qancha islohotlarni amalga oshirmoqda xususan 2030-yilga qadar hukumat neft sohasiga 300 mlrd AQSh dollari ajratishni ko'zda tutmoqda. 100 mlrd. AQSh dollar miqdorni esa xizmat ko'rsatishni turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor bermoqda.



Manba: Saudiya Arabistoni statistika va axborot departamenti rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

### 1.2.2-rasm. Saudiya Arabistoni YaIM asosiy sektorlarda ulushi va uning dinamikasi (% hisobida)

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak neftdan tashqari xususiy sektor yuqori ulushga ega bo'lib 2000-yilda 50,9% ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2013-yilda qariyb 60% ga yetdi(1.2.2-rasm). Undan keyingi o'rinda neft sektori bo'lib 2000-yilda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 28,2% ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2013-yilga kelib 19,7% ga yetdi. Neftdan tashqari davlat sektori ulushi deyarli o'zgarishsiz qolgan. Yildan-yilga neftdan tashqari xususiy sektorni ulushini ortib borishi mamlakatda diversifikatsiya jarayonlari samarali olib borilayotganidan dalolat beradi. Ko'rishimiz mumkinki Saudiya hukumati mamlakat iqtisodiyotini neftga bog'liqlik darajasini yildan-yilga pasaytirib bormoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining rivojlanishi Fors ko'rfazi mamlakatlarini, shu jumladan mazkur mintaqaning eng yirik davlati - Saudiya Arabistonini chetlab o'tgani yo'q. "Al-Hayot" London nashriyatini xabar berishicha, 2008-yil yakunida Saudiya birjasida davlatning asosiy kompaniyalari aksiya kotirovkalari jiddiy darajada pasayishi (8,7%) kuzatildi, shuningdek, birja indeksleri 2007-yildagi darajaga pasaydi. Mintaqadagi boshqa mamlakatlar birjalarida ham murakkab vaziyat yuzaga keldi, birinchi navbatda bu Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklariga tegishli, u yerda pasayish darajasi Saudiya Arabistonidagi vaziyatga o'xshash. Gaz sanoati Saudiya iqtisodida muhim rol o'ynaydigan neftdan keyingi ikkinchi asosiy omil hisoblanadi va YaIM ning 15% ini tashkil etadi. 2011-yil malumotiga ko'ra mavjud gaz zaxiralari hajmi 7,8 mlrd kub ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha Saudiya Arabistoni 4-o'rinda turadi. Gaz ishlab chiqish yildan-yilga ortib borishiga qaramasdan uning hammasi ichki istemolga ketmoqda. . 2009-yilda neft sektorini o'rtacha o'sish surati -39,08% ni tashkil etdi. 2008-yilda moliyaviy inqiroz jahon neft bozorida neft narxini pasayishiga sabab bo'ldi va bu jarayon Saudiyaning tashqi savdosiga salbiy ta'sir qildi. 2010-yilda esa neft sektorini o'ratacha o'sish ko'rsatkichi 35,09% ni va 2011-yilda esa 44,75% li o'sishni ifodaladi<sup>19</sup>. 2009-2010 yillarda o'rtacha o'sish suratlarini yuqori ko'rsatkichlarni ifodalashiga sabab jahon neft bozorida neft

---

<sup>19</sup> www.imf.org - Xalqaro Valyuta Fondi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

narxlarini ko'tarilib ketishi 2012-yilda Eronga qo'yilgan neft embargosi va 2011-yil Liviyada boshlangan siyosiy inqiroz sabab bo'ldi. Saudiya hukumati mamlakat iqtisodiyotini neftga bog'liqligini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotni sanoat tarkibini diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Saudiya Arabisoni iqtisodiyotini asosiy donor tarmog'i neft sektori bo'lgani uchun hukumat diversifikatsiya jarayonlarini keng ko'lamda amalga oshirmoqda.

2000-yilda Saudiya hukumati 2001-2020 yillarga mo'ljallangan yirik "Industry 2020" davlat dasturini tadbqiq qildi. Amalga oshirilayotgan "Industry 2020" loyihasi, ya'ni "Yangi sanoat siyosati" sanoat ishlab chiqarish strategiyalarining asosiy tamoyillari va mexanizmlarini o'z ichiga olib, yangi innovatsiya tizimlariga asoslangan holda sanoatlashtirishni rivojlantirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sanoat ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoniyatini yanada kuchaytirib, sanoat tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik va o'rta korxonalarining sanoat sohasi bilan yanada kengroq shug'ullanishlari uchun bir qator rag'batlantirish asosida preferensiyalar va afzalliklardan foydalanishlari amalga oshirilayotgan ushbu dasturlarning asosiy yo'nalishlari bo'lib xizmat qiladi.

Saudiya Arabiston iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish maqsadida xususiy sektorni ulushini oshirib bormoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya jarayonlari elektroenergiya ishlab chiqarish sohalari, telekommunikatsiya va tabiiy gazni qayta ishlash sohalarida olib borilmoqda. Saudiya iqtisodiyotini rivojlanishida xorijiy ishchi kuchining ahamiyati yuqori bo'lib neft va xizmat ko'rsatish sohalarida 5,5 mln ga yaqin xorijliklar faoliyat yuritadi. Neftga bog'liqlikni pasaytirish uchun Saudiya hukumati iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish siyosatini amalga oshirmoqda. Uning asosiy yo'nalishlari: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xususiy sektorni mustahkamlash, turizm sanoatini rivojlantirish va energetika sohalarini qamrab oladi. 2010-yilda Saudiya iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar miqdori 170 mlrd dollardan oshdi. Sanoatda diversifikatsiya jarayonlari aviatsiya va avtomobil sohalarida amalga oshirildi. Saudiya hukumati "Saudia Arabian Airlines" avia kompaniyasini jahonda

yetakchi bo'lishini rejalashtirmoqda. Saudiya shuningdek avtomobil biznesi markazlari uchun juda qulay mamlakat hisoblanadi. Mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirish turistlar oqimini ko'payishiga olib keladi.

### 1.2.1-jadval

#### YaIM ni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi (% hisobida)

Iqtisodiyot tarmoqlari	2009	2010	2011	2012	2013
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	2,9	2,4	1,9	1,8	1,8
<b>Tog' kon sanoati</b>	37,8	41,6	48,4	47,6	44,8
a) Neft xom ashyosi va gaz	37,4	41,2	48,1	47,3	44,4
b) boshqalar	0,4	0,4	0,3	0,3	0,4
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	10,9	11,0	10,0	9,8	10,1
a) neftni qayta ishlash	2,9	3,2	2,6	2,5	2,4
b) boshqalar	7,9	7,8	7,5	7,3	7,7
<b>Elektroenergiya, gaz va suv</b>	1,3	1,3	1,1	1,1	1,1
<b>Qurilish</b>	5,0	4,6	4,3	4,3	4,8
<b>Savdo</b>	9,2	8,8	7,9	8,0	8,6
<b>Transport va aloqa</b>	5,5	5,1	4,6	4,5	4,8
<b>Moliya, sug'urta va biznes xizmatlari</b>	10,6	9,2	7,8	8,4	9,4
a yer-joyga egalik qilish	4,9	4,5	3,9	4,5	5,2
b boshqalar	5,7	4,8	3,9	3,9	4,1
<b>Aloqa xizmatlari</b>	2,2	1,9	1,7	1,7	1,8
<b>Bank xizmatlari</b>	0,8	0,8	0,8	1,0	1,2
<b>Jami</b>	84,2	85,0	86,9	86,5	86,4
<b>Davlat xizmatini ishlab chiquvchilar</b>	15,0	14,2	12,4	12,7	12,9
<b>Jami (sof importdan tashqari)</b>	99,2	99,3	99,3	99,2	99,2
<b>Jami sof import</b>	0,8	0,7	0,7	0,8	0,8
<b>YaIM</b>	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: Saudiya Arabistoni statistika va axborot departamenti rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi keltirilgan jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak Saudiya iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida tog'-kon sanoati yuqori ulushga ega bo'lib uning tarkibida neft xom ashyosi va gaz asosiy o'rinni egallagan. 2009-yilda tog' kon sanoati tarkibida neft va gaz asosiy o'rinni egallab uning ulushi 37,4% ni tashkil etdi va o'rtacha o'sish ko'rsatkichi -41,12% ga yetdi. 2010-yilda esa bu ko'rsatkich 41,2% ni va o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 35,17% ni ifodaladi. 2009-yilda o'sish ko'rsatkichining pasayishiga sabab 2008-yilgi moliyaviy inqiroz tufayli jahon neft bozorida neftga bo'lgan talabning kamayishi bo'ldi. 2010-yildan boshlab o'sish suratlari

barqarorlashdi. Tog'-kon sanoatidan keyingi o'rinlarda qayta ishlash sanoati, savdo va qurilish sohalari asosiy o'rinni egallagan. Qayta ishlash sanoati tarkibida neftni qayta ishlash sanoati asosiy o'rinni egallab 2009-yilda uning ulushi 2,9% ni va o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 1,95% ni tashkil etdi(1.2.1-jadval) 2010-yilda uning qayta ishlash sanotidagi ulushi 3,2% ni tashkil etdi.

Saudiya Arabistoni hukumati sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdan tashqari qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tiborni qaratadi. Agrar soha va ushbu sohadagi siyosat nafaqat Saudiya Arabistonida, balki mintaqadagi ko'plab arab mamlakatlarida ham iqtisodiy siyosatining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Agar qishloq xo'jaligining rivojlanishi davlat siyosatida ustuvor bo'lib qolsa, bu qishloqni sanoatlashtirishning bir maromda rivojlanishiga va asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga faol yordam beradi. Mazkur mintaqada qishloq xo'jaligi sohasi u qadar rivojlanmagan bo'lsa-da, Saudiya Arabistoni milliy iqtisodiyotida agrar soha o'zining xususiyati bilan mintaqadagi boshqa arab mamlakatlaridan alohida ajralib turadi.

Gap shundaki, mamlakatning qishloq xo'jaligi tarmoqlarida dehqonchilik bilan shug'ullanishda bir qator tabiiy qiyinchiliklar mavjuddir. Birinchidan, suv muammosi bo'lsa, ikkinchidan yerning unumdorlik toifasiga kirmasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham, qishloq xo'jaligida suv muammosining kelib chiqishi va ushbu sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qiyin va mushkul holatlarda yetishtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi ham tabiiy ravishda ko'tariladi. Chunki ushbu tarmoqni rivojlantirishda iqlim qulay bo'lsada, ekin maydonlarining kamligi va suv tanqisligi bilan ba'zi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. 1970-yillarning o'rtalarida "1-besh yillik" davlat rejasiga muvofiq, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida unumdor tuproqlarni qo'shni yaqin hududlardan import qilinganligi ta'kidlash joiz.

Shuningdek, ekin maydonlari ko'plab mineral o'g'itlar talab qilishi sababli, mamlakatning asosiy import mahsulotlar tarkibida mineral o'g'itlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, fermer xo'jaliklar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi davlat tomonidan jahon bozoridan 2-3

marotabaga qimmat narxda sotib olinadi, lekin qimmat narxda sotib olingan mahsulotlarni ichki bozorda aholini xarid qilish qobiliyatidan va jahon bozoridan kelib chiqqan narhlar asosida sotiladi. Shuning uchun ham, Saudiya Arabistonida fermerlar uchun subsidiya miqdorlari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori miqdorni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklariga hukumat tomonidan tashkil qilingan maxsus Saudiya Arabistoni Qishloq xo‘jaligi banki tomonidan beg‘araz ssudalar taqdim qilinadi.

Qishloq xo‘jaligida bug‘doy, pomidor, kartoshka, piyoz, qovun, xurmo (finiki), sitrus mevalar, baliq, chorva mahsulotlari, parranda, tuxum, sut kabi mahsulotlar etishtiriladi. Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan bug‘doy, meva-sabzavot, quritilgan mevalar, xurmo, sut mahsulotlari, tuxum, parranda va baliq mahsulotlari mamlakat aholisini to‘la ehtiyojini qoplaydi. Hatto, ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qo‘shni arab mamlakatlariga, jumladan Quvayt, Qatar, Birlashgan Arab Amirligi va Bahrayn kabi mamlakatlariga eksport ham qilinadi. Saudiya Arabistoni rejalashtirish va sanoatlashtirish vazirligining ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatning qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida 2010 yilda ja‘mi 4,7 million tonna poliz mahsulotlari, 3,4 million tonna sabzavot va qariyb 2,1 million tonnaga yaqin mevalar yetishtirilgan.<sup>20</sup> Faqatgina mavsumiy xaj safarlariga tashrif buyuradigan vaqtda, ya‘ni salkam 3 million sayyoxlar uchun Saudiya Arabistoni ba‘zi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qo‘shni yaqin mamlakatlaridan import qiladi. Agrar sohada etishtirilayotgan ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan Saudiya Arabistoni jahon qishloq xo‘jaligiga qum va cho‘l ustida yuqori hosildorlikka erisha olishini isbotlab qo‘ymoqda.

---

<sup>20</sup> [www.saudiarabiaagro.gov.sa](http://www.saudiarabiaagro.gov.sa) - Saudiya Arabistoni Rejalashtirish va Sanoatlashtirish vazirligi rasmiy saytidan olingan ma‘lumotlar.

## **II BOB. SAUDIYA ARABISTONINING FORS KO'RFAZI MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI**

### **2.1 Saudiya Arabistoni-mintaqaviy iqtisodiy aloqalar tizimida**

Iqtisodiy tarixdan ma'lumki, jahon xo'jaligida Fors ko'rfazi mintaqasi mamlakatlarning iqtisodiyoti 1970-yillarning o'rtalaridan boshlab poydevor qo'yilib, bugungi kunda yuqori suratlarda bilan rivojlanib kelmoqda, ayniqsa, ularning iqtisodiyotini tez shakllanishiga o'z navbatida neft xom ashyosi muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt, Qatar, Bahrayn kabi mamlakatlar neft xomashyosini qazish va uni eksport qilish, hamda ushbu mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot uslublarining o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari bilan jahon xo'jaligida boshqa arab mamlakatlardan ajralib turadi. XX asrning boshlariga kelib, Arab dunyosi mamlakatlarida ro'y bergan bir qator siyosiy qarama-qarshiliklar ko'plab arab mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlariga salbiy ta'sirini o'tkazdi. 1970-80 yillarda Fors ko'rfazi va Shimoliy Afrika mamlakatlarida sanoatlashtirish jarayoni jadal rivojlandi, hamda hozirgi kunga kelib, neft xomashyosiga ega bo'lgan mamlakatlarning milliy iqtisodiy taraqqiyotida „neft omili“ eng asosiy daromad manbai sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham neft qazish va uni ishlab chiqarish, neft xomashyosidan aholi istemoli mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi neft sanoati tarmoqlarini shakllanishi va ularni rivojlanishi milliy iqtisodiyotning asosiy o'zagiga aylanganligi namoyon bo'lmoqda. Shuni alohida takidlash lozimki, globallashtirish sharoitida Yaqin va O'rta Sharq mintaqasining Fors ko'rfazi hududi mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarida xizmat ko'rsatish sohasi ulushi yil sayin ortib bormoqda. Biz bilamizki, XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida Fors ko'rfazidagi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajalari sezilarli darajada o'sdi.

Fors ko'rfazi mintaqasini jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni hozirgi globallashtirish davrida juda muhim hisoblanadi. Oxirgi o'n yillikda arab

mamlakatlarni iqtisodiy o'sishi 3-6,4% ni tashkil etdi. Ularning har biri o'ziga xos iqtisodiy rivojlanishga ega va tashqi hamkorlar uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu mintqa mamlakatlari iqtisodiyotini donor tarmog'i asosan neft hisoblanadi. Oxirgi paytlarda mintaqada yirik moliya markazlari yuzaga kelmoqda. Iqtisodiyoti erkinligi darajasi bo'yicha Qatar va BAA mamlakatlari mintaqada yuqori o'rinlarda turadi. Fors ko'rfazi mamlakatlarni yirik savdo hamkorlari Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya mamlakatlari hisoblanadi.

### 2.1.1-jadval

#### Fors ko'rfazi arab mamlakatlari iqtisodiyotining makroiqtisodiy indekslari (2013-yil)

Mamlakatlar	Bahrayn	Qatar	SAP	Quvayt	BAA	Ummon	SAP % da ulushi
<b>Asosiy ko'rsatkichlar:</b>							
<b>Umumiy maydoni, ming kv.km.</b>	0,8	11,6	<b>2000</b>	17,8	83,6	309,5	<b>82,5</b>
<b>Aholisi, mln. kishi.</b>	1,32	1,87	<b>28</b>	2,8	7,9	2,85	<b>62,6</b>
<b>YaIM, mlrd.AQSh doll</b>	30,6	150,4	<b>500,4</b>	135,2	321,6	66,3	<b>41,5</b>
<b>Aholi jon boshiga YaIM, ming.AQSh doll</b>	23,1	80,4	<b>17,8</b>	47,9	40,76	23,3	<b>7,6</b>
<b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mln.AQSh doll</b>	780,9	86,8	<b>16400</b>	398,6	7700	788	<b>62,7</b>
<b>Tabiiy resurslar zaxirasi:</b>							
<b>Neft zaxirasi, mlrd barrel</b>	0,3	4,4	<b>264,6</b>	105,5	97,8	4,8	<b>55,4</b>
<b>Gaz zaxirasi, trln kub</b>	8,2	901,8	<b>279,7</b>	56,0	215,1	18,7	<b>18,9</b>

Manba: www.gcstat.org FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki Saudiya Arabistoni mintaqada iqtisodiy rivojlangaligi bo'yicha yuqori o'rinda turadi. Saudiya Arabistoni iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi omillardan yana biri ushbu mamlakatning foydali qazilma zaxiralariga boy ekanligidir. Saudiya Arabistonida aniqlangan neft zaxiralari butun jahon neft zaxiralarining 25 foizga yaqinini tashkil

qiladi. Saudiya neftining eng asosiy afzalligi – tannarxining arzonligi. XX asrning 80-yillarida 1 tonna Saudiya neftini qazib olish tannarxi 2 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Indoneziyada bu ko'rsatkich- 4 dollarni, Nigeriyada-8, AQShda-22 dollarga teng bo'lgan. Mintaqada Saudiya Arabistoni hududi jihatdan ham katta yer maydonini egallagan bo'lib jami Fors ko'rfazi mintaqasi hududining 82,5% ini tashkil qiladi. Mamlakat aholisi ham qolgan Fors ko'rfazi mamlakatlaridagiga nisbatan ancha ko'p. 2013-yil ma'lumotiga ko'ra mintaqa aholisining 62,6% ini Saudiyaliklar tashkil etmoqda(2.1.1-jadval). YaIM miqdori bo'yicha ham Saudiya mintaqada yuqori ulushga ega bo'lib 2013-yilda mintaqa YaIM ni 41,5% ini tashkil etdi. Saudiya Arabistoni Qirolligining 2012-yilda Iroq poytaxti Bag'dod shahrida bo'lib o'tgan Arab mamlakatlari ligasiga a'zo rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan sammitda ta'kidlab o'tganidek, “Saudiya Arabistoni yuzaga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramasdan jahon mahsulotlar bozorida o'zining asosiy mahsulotlar eksporti ulushi bilan ishtirok etmoqda va “arab dunyosi” ning tashqi savdoni yanada rivojlantirishi uchun yangi bozorlarni tahlil qilishga sizlarni chorlaymiz”. Saudiya mintaqada investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ham yuqori o'rinlarda turadi

### 2.1.2-jadval

#### Fors ko'rfazi mamlakatlarini global raqobatbardoshlik reytingidagi o'rni (2014-yil)

Mamlakatlar	Indeks	Reyting
Shvetsariya	5,7	1
Singapur	5,6	2
AQSh	5,5	3
BAA	5,3	12
Qatar	5,2	16
<b>Saudiya Arabistoni</b>	<b>5,1</b>	<b>24</b>
Quvayt	4,5	40
Bahrayn	4,5	44
Ummon	4,5	46

Manba: The Global Competitiveness Report 2014-2015. Geneva: World Economic Forum, 2014.

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak Global raqobatbardoshlik reytingi bo'yicha Saudiya Arabistoni 24-o'ringa turibdi. Global raqobatbardoshlik indeksi- jahondagi mamlakatlarni iqtisodiy raqobatbardoshligini belgilab beruvchi

ko'rsatkich hisoblanadi. Bu hisob-kitob jarayonlari Jahon iqtisodiy forumi metodikasi asosida amalga oshiriladi. Global raqobatbardoshlik indeksini aniqlash jarayonlari 2004-yildan beri o'tkazilib bu reyting 113 ta ko'rsatkichni o'z ichiga qamrab oladi (2.1.2-jadval). Bu ko'rsatkichlarni 12 ta guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

- Moliya institutlari sifati
- Infratuzilma
- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Sog'liqni saqlash va boshlang'ich ta'lim
- Oliy ta'lim va malakaviy qayta tayyorlash
- Tovar va xizmat bozorlaridagi samaradorlik
- Mehnat bozori samaradorligi
- Moliya bozori rivojlanishi
- Texnik rivojlanish darajasi
- Kompaniyalar raqobatbardoshligi

Mintaqa mamlakatlari orasida bu ko'rsatkich bo'yicha BAA va Qatar mamlakatlari yuqori o'rinlarda bo'lib 2014-yil ma'lumotiga ko'ra BAA da bu indeks 5,3 ga Qatarda esa bu ko'rsatkich 5,2 ni tashkil qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarda Saudiya Arabistoni(5,1), Quvayt(4,5), Bahrayn(4,5), Ummon(4,5) mamlakatlari turibdi.

### **2.1.3-jadval**

**Fors ko'rfazi mamlakatlarini Doing Business reytingi bo'yicha o'rni (2014-yil)**

Mamlakatlar	O'rni
Singapur	1
Yangi Zelandiya	2
Gonkong Xitoy	3
BAA	22
<b>Saudiya Arabistoni</b>	<b>49</b>
Qatar	50
Bahrayn	53
Ummon	66
Quvayt	86

Manba: [www.doingbusiness.org](http://www.doingbusiness.org) rasmiy saytining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.


Jadvaldan ko'radigan bo'lsak 2014-yilda Saudiya Arabistoni doing business reytingi bo'yicha 49-o'rinda turibdi. Bu reytingni yuqori uchligini Singapur, Yangi Zelandiya va Gonkong mamlakatlari egallagan. Mintaqa mamlakatlari orasida bu ko'rsatkich bo'yicha BAA 22-o'rinda tursa undan keyin Saudiya Arabistoni 49-o'rinda turibdi. Doing business reytingi ham bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi, xususan, biznes yuritish yengilligi ko'rsatkichi, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, elektr tarmoqlariga ulanish, mulkni ro'yxatdan o'tkazish va xalqaro savdo kabi ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlarda investitsion faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari baholanadi. Saudiya Arabistoni mamlakatda biznes yuritish ko'rsatkichi bo'yicha 49-o'rinda tursa Qatar, Bahrayn, Quvayt kabi mamlakatlar undan keyingi o'rinlarni egallagan. Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha esa Saudiya Arabistoni 109-o'rinda, qurilish olib borishga ruxsat olish(21), elektr tarmoqlariga ulanish(22), mulkni ro'yxatdan o'tkazish(20), kredit olish(710, xalqaro savdo(92), kelishuv ijrosini ta'minlash bo'yicha esa 108-o'rinda turibdi. Saudiya Arabistonida investitsion faoliyat bilan shug'ullanish uchun bir qancha imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatda sanoat tarmoqlarining rivojlanishida va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy ulush 6 ta iqtisodiy sanoat hududlariga to'g'ri keladi. Saudiya Arabistoni Bosh investitsiya boshqarmasining (SAGIA) ma'lumotiga ko'ra, 2020-yilga borganda tashkil qilingan 6 ta yirik iqtisodiy sanoat hududlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining miqdori 150 mlrd AQSh dollarini tashkil qilishi va 1,3 mln ishchi kuchi ushbu hududlarda faoliyat olib borishi, hamda ushbu sanoat hududlaridagi ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining miqdori mamlakatning yalpi ichki mahsulotida asosiy ulushni va aholi jon boshiga o'rtacha 125,625 rial (33,4 mln dollar) daromadni tashkil qilishi taxmin qilinmoqda<sup>21</sup>.

Saudiya hukumati energetika, suv ta'minoti, telekommunikatsiya, avtomobilsozlik, kemasozlik va transport sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarning ko'lamini oshirish ga harakat qilmoqda.

---

<sup>21</sup> Saudi Outlook-2013, All sectors report Saudi Arabia 2013.




Manba: [www.gccstat.org](http://www.gccstat.org) FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

### 2.1.1-rasm. Fors ko'rfazi mamlakatlari va Saudiya Arabistoni eksport hajmi dinamikasi (mlrd. AQSh dollar)

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak Saudiya Arabistoni mintaqada eksport hajmining yuqoriligi bo'yicha ajralib turibdi. 2008-yilda Saudiya Arabistoni eksporti Fors ko'rfazidagi qolgan mamlakatlar eksportining 47,9% ini va bu ko'rsatkich 2009-yilda 43,4% ni tashkil etdi. 2009-yilda butun mintaq bo'yicha eksport hajmi keskin pasaydi sababi 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi Fors ko'rfazi mintaqasidan eng ko'p Saudiya Arabistoni iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qildi. 2010-yilda jami mintaq eksportida Saudiya Arabistoni uushi 42,7% ni, 2011-yilda 42,8%, 2012-yilda bu ko'rsatkich 41,5% ni tashkil etdi. Demak ko'radigan bo'lsak 2010-yildan boshlab Saudiyani ulushi pasayishni boshladi. 2008-yildagi moliyaviy inqiroz Saudiya eksportiga ham salbiy ta'sir qildi sababi 2009-yilda uning mintaq eksportidagi ulushi 4,5% ga pasaydi. 2010-yilda ham 0,7% pasayish tendensiyasi kuzatildi. Saudiya eksport hajmi 2010-yildan boshlab o'sish tendensiyasiga ega bo'lib eng yuqori ko'rsatkichni 2012-yilda 388,4 mlrd dollarni tashkil etdi. 1995-yil davomida Fors ko'rfazi mamlakatlarini yalpi eksporti 103 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa shundan Yevropa mamlakatlariga qilingan eksport ulushi 53% ni ya'ni 54,8 mlrd dollar bo'ldi va bunda Saudiyani ulushi 19,8% ni 10,9 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2005-yilda 15,8% ni

ya'ni 33,24 mlrd dollarni tashkil etdi. 2013-yilda esa ushbu ko'rsatkich 9,3% ni tashkil etdi.



Manba: [www.gcstat.org](http://www.gcstat.org) FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

### **2.1.2-rasm. Fors ko'rfazi mamlakatlari va Saudiya Arabistoni import hajmi dinamikasi (mlrd. AQSh dollar)**

Import tarkibini ko'radigan bo'lsak Saudiya Arabistoni mintaqada import hajmi bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi. 2008-yilda Saudiya Arabistonining import hajmi ulushi jami mintaqa ulushining 31,7% ini tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2009-yilda 32,6% ga yetdi. 2009-yilda Fors ko'rfazi mintaqasidagi mamlakatlarning import hajmi o'tgan yilgiga nisbatan keskin pasaydi. 2008-yilda import hajmi 115,1 mlrd dollar bo'lgan va bu ko'rsatkich 2009-yilda 95,5 mlrd dollarni tashkil etgan. Mintaqa mamlakatlarini eksport tarkibini ko'radigan bo'lsak unda asosiy o'rinni neft va neft mahsulotlari tashkil etadi. Neftning jahon bozorida narxining doimiy o'sib borishi natijasida, barcha Fors ko'rfazi arab mamlakatlarining yalpi savdosi 2011-yilda yoqilg'i energiya bozorida ijobiy o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lib, yalpi eksport ko'rsatkichi 41,9% ga oshdi, bu tahminan 851,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bunda yalpi eksport hajmi bo'yicha eng katta ulush Saudiya Arabistoni hissasiga to'g'ri keldi. Avvalgi yilga nisbatan o'zgarish ko'rsatkichi barcha mamlakatlarda ijobiy bo'lib, eng ko'p o'sish

darajasi Quvaytda (56,6) va eng kam o'sish darajasi esa Ummonda (24,8%) kuzatilgan.

Saudiya Arabistoni OPEC tashkilotida o'zining muhim o'rniga ega. Bu mamlakatni OPEC tashkilotida muhim o'rin egallashiga quyidagi omillar sabab bo'ldi:


- jahonda neft qazib olishga eng kam xarajat qiladi 1 barrel 1,5\$ ga teng,
- tarmoq sohasiga yuqori texnologiyalar jalb etilganligi,
- milliy iqtisodiyot va neft sanoatini bir-biriga uzviy bog'liqligi,
- iqtisodiy va siyosiy tizimni barqarorligi.

Neft va gaz sanoatini rivojlantirish maqsadida hukumat har yili Saudi Aramco milliy kompaniyasiga 15 mlrd dollar mablag' ajratadi. Saudiya Arabistonida 7 ta neftni qayta ishlash zavodlari mavjud bo'lib yiliga 90 mln tonnagacha neft ishlab chiqaradi. Mamlakatda maxsus neft-gaz sohasida qonunchilik yaratilmagan, neft sanoati konsessiya shartnomasi asosida rivojlantiriladi. 2012-yilda Saudiya Arabistoni uglevodorod ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'ringa va uni eksport qilish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyoti haligacha neftga bog'liq bo'lib OPEC tashkiloti malumotiga ko'ra hukumat daromadlarining 90% ini aynan neftdan kelgan daromad tashkil etgan<sup>22</sup>. Saudiya Arabistoni importini geografik tarkibini ko'radigan bo'lsak 2013-yilga kelib asosiy import hamkorlari Janubi-sharqiy osiyo mamlakatlari bo'lib asosan Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya mamlakatlari hisoblanadi. So'nggi yillarda Saudiya Arabistonining ham asosiy import hamkorlari asosan Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur mamlakatlari bo'lib bu mamlakatlardan asosiy import tovarlar tarkibini elektron mahsulotlar tashkil etadi. Fors ko'rfazi mamlakatlarini rivojlanayotgan mamlakatlardan import miqdori 25,0 mlrd AQSh dollarni tashkil qilgan bo'lsa bunda Saudiyaning ulushi 25,4% ni ya'ni 6,25 mlrd AQSh dollar bo'lgan. 2005-yilga kelib mintaqa mamlakatlarini rivojlanayotgan mamlakatlardan import miqdori 76,7 mlrd AQSh dollarni tashkil etdi va bunda

---

<sup>22</sup> Saudi Arabian Monetary Agency, Research and Statistics Department-forty eighth annual report Saudi Arabia 2012.

Saudiya Arabistonining ulushi 26,8 mlrd dollarga yetdi.



Manba: www.opec.org Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti malumotlari asosida tayyorlangan.

### 2.1.3-rasm. OPEC ga a'zo Fors ko'rfazi mamlakatlarini neft xom ashyosi eksport miqdori dinamikasi (mlrd AQSh dollar)<sup>23</sup>

Yuqoridagi grafigni ko'radigan bo'lsak OPEC tashkilotida Saudiya Arabistoni neft ustidan to'liq ustunlikka ega desak bo'ladi. Ko'rinib turibdiki 2008-yilda Saudiya Arabistonini OPEC dagi neft eksporti hajmi 280,9 mlrd dollarni tashkil etgan va bu ko'rsatkich bo'yicha OPEC ga a'zo Fors ko'rfazi mamlakatlari jami neft eksportining 56,9 % ini tashkil etmoqda deyarli 60% ko'satgich. 2009-yilda esa neft eksporti hajmi 157,4 mlrd AQSh dollarni tashkil etgan va bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan past bo'ldi. 2009-yilda Saudiya Arabistonini neft eksporti ulushi 56% ni tashkil etdi. Ko'radigan bo'lsak 2009-yilda jahon neft bozorida 2008-yilgi moliyaviy inqiroz sabab neftga bo'lgan talab keskin pasaydi va OPEC mamlakatlari ham neft qazib chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo'ldi. 2010-yildan boshlab neft eksporti hajmi yana o'sishni boshladi va bu yili uning hajmi 196,1 mlrd dollarni tashkil etdi. Saudiya Arabistonini neft eksporti ulushi 2010-yilda 54,3% ni tashkil etdi ko'radigan bo'lsak Saudiyaning OPEC tashkilotidagi neft eksporti ulushi Fors ko'rfazi mamlakatlarining jami neft eksportining 50% idan yuqori ko'rsatkichni ifodalamoqda. 2012-yilda Saudiyani

<sup>23</sup>www.opec.org - Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti rasmiy saytidan olingan ma'lumot.

OPEC da neft eksporti hajmi rekord ko'rsatkichni 336,1 mlrd dollarni ifodalamoqda va uning Fors ko'rfazi mamlakatlari yalpi eksportidagi ulushi 53,1% ifodalamoqda.

## **2.2 Saudiya Arabistonining Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari**

Hozirgi jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida Yaqin va O'rta Sharq mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotida sanoatlashtirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqadagi har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining sanoat sohasini rivojlantirishda va uni diversifikatsiya jarayonini amalga oshirishda o'z milliy taraqqiyot uslubiga, siyosatiga va strategiyasiga egadir. Jahon xo'jaligida Fors ko'rfazi mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiyoti 1970-yillarning o'rtalaridan boshlab poydevor qo'yilib, bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib kelmoqda, ayniqsa, ularning iqtisodiyotini tez shakllanishiga o'z navbatida neft xomashyosi muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt, Qatar, Bahrayn kabi mamlakatlarda neft xomashyosini qazish va uni eksport qilish, hamda ushbu mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot uslublarini o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari bilan jahon xo'jaligida boshqa arab mamlakatlaridan ajralib turadi. Hozirda Yaqin va O'rta Sharq mintaqasining Fors Ko'rfazi hududi mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlarida iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasidagi ulushi yil sayin ortib bormoqda. Fors Ko'rfazi mintaqasidagi sanoati rivojlangan davlatlar, o'zlarining iqtisodiy mustaqilligi bilan mag'rurlangan, tabiiy va mineral resurslarga (neft va gaz) ga boy bo'lgan mavjud resurslari bilan jahon energetika tizimi bilan chambarchas bog'langan. 1869-yili Misrdagi Suvaysh kanali ishga tushgandan keyin Fors ko'rfazidagi mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati yanada rivojlandi.

XX asrning oxirlarida Osiyoning G'arbiy qismida joylashgan mamlakatlar va Fors ko'rfazi mamlakatlari tomonidan mavjud neft xomashyosining eksporti

evaziga jamg'arilgan yirik kapital egalari jahon xo'jaligida moliyaviy jihatdan alohida o'z o'rniga ega bo'ldilar. Masalan, Fors Ko'rfazi hududidagi Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Bahrayn, kabi mamlakatlarning aynan iqtisodiy taraqqiyoti neft xomashyosi eksporti evaziga olingan xorijiy valyutalar tushumini milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarini rivojlantirishga yo'naltirishdi va yo'naltirishmoqda. Yaqin istiqbol yillarda ham ushbu an'ana davom etadi. Saudiya Arabistoni, BAA va Qatar mamlakatlari sanoatida jiddiy diversifikatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Saudiya Arabistoni jahondagi deyarli barcha nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo, jumladan BMT, Arab mamlakatlari ligasi, Islom konferensiya tashkiloti, OPEC, OAPEC, Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi kabi tashkilotlarda Saudiya Arabistoni yetakchilikni o'z qo'liga olgan. Ma'lumki Saudiya Arabistoni joylashgan o'rni, ya'ni iqtisodiy-geografik jihatdan uchta yirik qit'a- Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alari tutashgan hududda joylashgan. Bu mamlakat hududidan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan kommunikatsiya tarmoqlari o'tadi. Avvaldan Saudiyaning siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlardagi mavqeini belgilab berishda ushbu omil muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining geografik jihatdan qulay joylashganligi jahonning turli mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirishga, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilishda xarajatlarning past bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Saudiya Arabistoni Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarini ko'radigan bo'lsak mintaqadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan Saudiya Arabistoni nisbatan iqtisodiyoti rivojlanganligi sabab yirik eksportyor va importyor hisoblanadi. 2008-yilda Saudiya Arabistonining eksport miqdori 322 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa bu Fors ko'rfazi mintaqasini 6,8% ni tashkil etdi. 2009-yilda bu ko'rsatkich 9,4%, 2010-yilda 7,6%, 2011-yilda 6,4% ni tashkil etdi. Mamlakat eksportida neft xom ashyosi va neft kimyosi sanoati mahsulotlari asosiy o'rinni

egallagan. Mintaqada Saudiyaning asosiy savdo hamkori BAA va Bahrayn mamlakatlari hisoblanadi.

**2.2.1-jadval**

**Saudiya Arabistonidan Fors ko'rfazi mamlakatlari eksport hajmi  
dinamikasi (mln. dollar)**

Mamlakatlar	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Bahrayn	9438	6543	7961	9850	10434	10156
Quvayt	1501	1315	1384	1588	1621	1631
Ummon	697	784	799	1726	1803	1695
Qatar	1656	1925	1599	1412	1454	1550
BAA	8774	8513	8781	10103	10381	10374
Jami	22066	19080	20524	24676	25693	25406

**Manba:** www.gcstat.org, FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvalda ko'rishimiz mumkinki Saudiya Arabistonining mintaqada asosiy savdo hamkori BAA va Bahrayn mamlakatlari hisoblanadi. Bahrayn mamlakati bilan tashqi savdo aylanmasi 2008-yilda 10619 mln AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa 2013-yilga kelib 11852 mln AQSh dollarga yetdi. Xususan 2009-yilda Fors ko'rfazi mamlakatlari eksport miqdori jami 19080 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa bunda Bahraynga qilingan eksport miqdori jami eksportning 34,2% ini tashkil etmoqda va BAA ga qilingan eksport miqdori esa jami eksportning 44,6% ini tashkil etmoqda. Demak ko'rishimiz mumkinki Saudiya Arabistonining mintaqada asosiy tashqi savdo hamkori BAA va Bahrayn mamlakatlari undan keyingi o'rinlarda esa Qatar, Quvayt va Ummon mamlakatlari turibdi.

2008-yildan 2013-yilga qadar BAA va Bahrayn mamlakatlari Saudiya Arabistonining asosiy savdo hamkori bo'lib qoldi. BAA va Bahrayn ga qilingan eksport miqdorini foiz hisobida ko'radigan bo'lsak 2009-yilda 80% ini tashkil etgan. 2010-yilda Bahraynga eksport hajmi miqdori ulushda 38,8% ni tashkil etgan bo'lsa BAA da bu ko'rsatkich 47,8% ga yetgan. Import hajmi bo'yicha ko'radigan bo'lsak Saudiya Arabistoni mintaqada asosiy importyor mamlakat ham hisoblanadi.

Uning mintaqada asosiy import hamkorlari BAA va Bahrayn mamlakatlari hisoblanib, 2008-yilda Saudiya Arabistoni jami import miqdori 176,7 mlrd AQSh

dollarni tashkil etadigan bo'lsa shundan Fors ko'rfazi mamlakatlari ulushi 2,8% ga yetdi va bu ko'rsatkich 2010-yilda 3,4% va 2013-yilda 5,6% ni tashkil etdi.

### 2.2.2-jadval

#### Fors ko'rfazi mamlakatlaridan Saudiya Arabistoniga import hajmi dinamikasi (mln. dollar)

Mamlakatlar	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Bahrayn	1181	941	1079	1275	1332	1696
Quvayt	312	294	373	464	415	500
Ummon	469	388	469	905	1465	1569
Qatar	127	178	251	479	605	637
BAA	2884	2878	3784	5448	6533	8518
Jami	4973	4679	5956	8571	10350	12920

Manba: [www.gcstat.org](http://www.gcstat.org), FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'radigan bo'lsak Saudiya Arabistoni import mahsulotlarini asosan BAA va Bahrayn mamlakatlaridan olib keladi. 2008-yil davomida import hajmi 4973 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa shundan BAA ulushi 58% ni, Bahrayn esa 24% ni tashkil etgan. Tahlil qiladigan bo'lsak Saudiya Arabistoni mintaqada deyarli import mahsulotlarini yarmini BAA dan olib keladi. 2008-yilda 58% ni tashkil etgan bo'lsa 2013-yilga kelib 65,9% ni tashkil etmoqda. BAA va Saudiya o'rtasida savdo aloqalarini yaxshi bo'lishiga sabab BAA da yaratilgan erkin iqtisodiy faoliyatga keng imkoniyatlar yaratilganligida.

BAA ning Dubay shahri xorijlik investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratgan jumladan Saudiya Arabistonida ham BAA dagi tadbirkorlar uchun bir qancha sharoitlar yaratilgan. Saudiyaning mintaqada asosiy savdo hamkori BAA mamlakati bilan asosiy iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari: turizm, neft va gaz, qurilish sohalari hisoblanib BAA dagi sarmoyadorlar uchun Saudiya hukumati ko'plab imkoniyatlar yaratgan. Saudiya Arabistonida yoki 100% xorij kapitali asosida xorijiy korxonalar ochiladi yoki bo'lmasa mahalliy sarmoyador bilan hamkorlikda faoliyat yuritiladi<sup>24</sup>. Mamlakatda asosiy sarmoya hozirgi kunda neft-gaz sohasiga kiritilmoqda.

<sup>24</sup> [www.saudiinvestment.gov.sa](http://www.saudiinvestment.gov.sa) Saudiya investitsiya vazirligi rasmiy saytidan olingan ma'lumot

**2.2.3-jadval**

**Saudiya Arabistonini Fors ko'rfazi mamlakatlariga eksportining tovar tarkibi (mln dollar)**

		2008	2009	2010	2011	2012	2103
Eksport	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	1439	1557	1686	1925	2025	2006
	Sanoat mahsulotlari	10547	8889	9695	10733	10686	9955
	Tabiiy resurslar	8302	5545	7168	9351	1763	9286
Reeksport	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	62	55	71,2	72	80,3	85,9
	Sanoat mahsulotlari	1796	3033	1901	1076	3092	4073
	Tabiiy resurslar	1,07	1,06	0,8	1,6	2,13	1,07
	Jami	22147	19080	20522	23158	17648	25407

Manba: www.gcstat.org, FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Saudiya Arabistonini Fors ko'rfazi mamlakatlariga eksportining tovar tarkibini ko'radigan bo'lsak asosiy o'rinni sanoat mahsulotlari tashkil etadi. 2008-yilda sanoat mahsulotlarini ulushi 47,6% ni tashkil etgan bo'lsa 2012-yilda uning ulushi 60,6% ga yetdi. Undan keyingi o'rinda tabiiy resurslar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari turadi. 2008-yilda tabiiy resurslar jami eksport miqdorining 37,5% ini tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2011-yilda 40,4% ga yetdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari 2008-yilda eksportning 6,5% ni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2013-yilda 7,9% bo'lgan. Saudiya Arabistonining eksport tarkibida reeksport ham alohida o'ringa ega, xususan, reeksport tarkibida sanoat mahsulotlari asosiy ulushni tashkil etadi. 2008-yilda sanoat mahsulotlari reeksporti jami eksportning 8,1% ini tashkil etgan bo'lsa 2013-yilda bu ko'rsatkich 16,3% ni ifodaladi. Fors ko'rfazi mamlakatlariga eksport miqdori tarkibini mamlakatlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak 2008-yilda asosiy ulushni BAA va Bahrayn mamlakatlari tashkil etadi. Xususan bu yilda BAA ga sanoat mahsulotlari eksporti ulushi jami sanoat mahsulotlari eksportining deyarli yarmidan ko'pini 68,4% ini tashkil etgan bo'lsa 2013-yilda bu ko'rsatkich 64% ga yetgan. 2008-yilda Bahraynga tabiiy resurslar eksporti jami tabiiy resurslar eksportining 95,9% ini tashkil etgan bo'lsa

bu ko'rsatkich 2009-yilda 93,5% bo'ldi. 2010-yilda esa bu ko'rsatkich 93,4% ni tashkil etdi. 2008-yilda Saudiyaning mintaqa mamlakatlariga eksport miqdori 22147 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2009-yilda nisbatan past 19080 mln dollarga teng bo'ldi. 2010-yildan boshlab eksport hajmi o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. 2009-yilda eksport hajmini pasayishiga sabab 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi bo'ldi.

#### 2.2.4-jadval

#### Saudiya Arabistonining Fors ko'rfazi mamlakatlaridan importining tovar tarkibi (mln. dollar)

	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	1216	1274,3	1387	1774	1908	1998
Sanoat mahsulotlari	3614	3394	4561	6522	7895	10307
Tabiiy resurslar	143,5	10,1	8,8	274	547	615,8
Jami	4973,5	4678,4	5956,8	8570	10350	12920,8

Manba: www.gcstat.org, FKADHK tashkilotining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Fors ko'rfazi mamlakatlaridan Saudiya Arabistoniga qilinadigan import mahsulotlari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak asosiy o'rinni sanoat mahsulotlari tashkil etadi. 2008-yilda sanoat mahsulotlari importi jami Fors ko'rfazi mamlakatlaridan qilingan importning 72,7% ini, 2009-yilda 72,5%, 2010-yilda 76,6% va 2013-yilda esa bu ko'rsatkich 79,8% ini tashkil etgan. Importning geografik tarkibini ko'radigan bo'lsak Saudiya Arabistonining asosiy import hamkori BAA va Bahrayn mamlakatlari hisoblanib 2008-yilda BAA mamlakatidan sanoat mahsulotlari importi jami importning 57,4% ini tashkil etgan bo'lsa Bahraynda bu ko'rsatkich 26,3% ga yetdi. Ko'radigan bo'lsak 2009-yilda import miqdori 2008-yilga nisbatan past ko'rsatkichni ifodaladi. 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi Fors ko'rfazi mamlakatlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import tarkibidagi ulushi deyarli 1% ni tashkil etadigan bo'lsa shuning asosiy qismini Saudiya Arabistoni Fors ko'rfazi mintaqasidan import qiladi. Saudiya Arabistoni mintaqada reeksport bo'yicha ham yuqori o'rinlarda turadi. Asosiy reeksport mahsulotlari sanoat mahsulotlari

hisoblanib, 2008-yilda sanoat mahsulotlari reeksporti jami eksportning 8,1% ini, 2009-yilda 15,9% ini, 2010-yilda esa 9,2% ini tashkil etdi. Saudiya Arabistoni Fors ko'rfazi mamlakatlaridan mashinalar texnologiyalar, oziq-ovqat mahsulotlari, aloqa vositalari, xalq istemol mollari, elektr buyumlar, yog'och metallar, dori-darmonlar va tibbiyot asbop-uskunalarini import qiladi. Ko'rinib turganidek, Saudiya Arabistoni xilma-xil tovarlar va xizmatlarni o'zlashtirishga qodir keng va serdaromad bozor hisoblanadi. Saudiya Arabistonida turli xil mahsulotlarni import qilish uchun yetarli moliyaviy imkoniyatlar mavjudligi bunga ko'maklashadi. Saudiya Arabistonining savdo-iqtisodiy sheriklarini, shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin: AQSh (asosiy iqtisodiy sherigi), G'arbiy Yevropa mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya), Fors ko'rfazi arab mamlakatlari va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Xitoy, Koreya, Singapur va Malayziya)

### **2.3. O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng Fors ko'rfazi mintaqasidagi deyarli barcha mamlakatlari O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo'lib tan oldi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ham o'zining tashqi siyosatida Fors ko'rfazi mintaqasi mamlakatlariga e'tibor qaratmoqda. Jumladan, Saudiya Arabistoni Qirolligida elchixonamiz samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda esa Quvayt, Saudiya Arabistoni, Eron kabi Fors ko'rfazi mintaqasi mamlakatlarining elchixonalari samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatida Fors ko'rfazi mamlakatlari o'ziga xos o'rin va ahamiyatga ega. Arab mamlakatlari bilan tovar aylanmasi 2010-yilda 130 ming AQSh dollarini va 2011-yilda 149 ming dollarni tashkil etdi. Eksportning asosiy tarkibini xizmatlar (turistik, moliyaviy, transport va aloqa xizmatlari), mexanik vositalar, plastmassa, va undan tayyorlanadigan mahsulotlar tashkil etadi. Import tarkibida ham asosiy o'rinni xizmatlar,

shuningdek, transport vositalari, mexanik va elektr asbob-uskunalari, kofe va kimyoviy mahsulotlar egallaydi<sup>25</sup>. Mamlakatimizning umumiy tashqi savdo-sotiq jarayonlarining 0,6% BAA ga to'g'ri kelar ekan<sup>26</sup>.

### 2.3.1-jadval

#### Alohida mamlakatlar bo'yicha O'zbekistonni tovar aylanmasi yo'nalishlari

Mintaqalar	Ikki tomonlama tovar aylanmasi mln AQSh dollar			Tovar aylanmasida O'zbekiston ulushi		
	2009	2010	2012	2009	2010	2012
MDH:						
Rossiya	4443,5	6377,6	15954,1	21,0	29,2	60,39
Ukraina	1526,2	552,6		7,2	2,5	
Qozog'iston	1307,2	1808,3	5950,6	6,2	8,3	22,5
YE mamlakatlari						
Germaniya	469,4	483,0	929,1	2,2	2,2	3,6
Buyuk Britaniya	173,7	228,4	399,4	0,8	1,0	1,5
Sharqiy Osiyo:						
Xitoy	2051,4	2085,3	6487,1	9,7	9,5	24,5
Respublika Koreya	1228,4	1614,7	3590	5,8	7,4	13,6
O'rta Sharq						
Turkiya	674,1	959,9	2574,3	3,2	4,4	9,7
Eron	581,3	645,3		2,7	3,0	
Fors ko'rfazi mamlakatlari	365,5	303,5		3,0	1,9	

Manba: www.stat.uz malumotlari asosida tayyorlangan

O'zbekiston va Fors ko'rfazi arab mamlakatlari iqtisodiyotlari ko'p jihatdan bir-birini to'ldiruvchi mamlakatlar hisoblanadi. Ulardagi tabiiy boyliklarning va sanoat-ishlab chiqarish imkoniyatlarining yetarli darajada ekanligi, madaniy va tarixiy qadriyatlar o'xshashligi, mamlakatlararo o'zaro foydali va samarali hamkorlik uchun barcha shart-sharoitlarni yaratmoqda hamda har ikkala mintaqa mamlakatlarining tashqi iqtisodiy manfaatlari ko'lamini tobora kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek „O'zbekistonni Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan munosabatida investitsion va

<sup>25</sup> www.mfer.uz O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining rasmiy saytidan olingan ma'lumot

<sup>26</sup> Экспорт и импорт товаров и услуг за январь-декабрь 2011 года // Статистический бюллетень. Государственный комитет Республики Узбекистан. Ташкент. 2012г. С.-32.

iqtisodiy hamkorlik asosiy rol o'ynaydi"<sup>27</sup>. Lekin hali O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan aloqalari yetarli darajada rivojlanmagan. 2010-yil ma'lumotlariga ko'ra Fors ko'rfazidan O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiya hajmi nisbatan past ko'rsatkichni 1,5 mlrd AQSh dollariga ham yetmagan, ikki tomon o'rtasidagi tovar aylanmasi 303,9 mln dollarni tashkil etdi. 2010-2013-yillarning oxirida O'zbekiston bilan tovar aylanmasi nisbatan ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar BAA (43,%), ikkinchi o'rinda Ummon (28,7%), undan keyingi o'rinda Bahrayn (16,3%), butun davr davomida Saudiya Arabistonining ulushi 2% dan oshmadi va Qatar bilan eng yuqori ulush 13% ni tashkil etdi. Globallashuv sharoitida transport logistikasi va savdo tranzitlari asosiy geoiqtisodiy ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda mintaqalararo transport koridorlarini tashkil etishga asosiy e'tibor berilmoqda bundan maqsad kelajakda bu jarayon O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari o'rtasidagi tovar aylanmasi hajmini oshirishga yordam beradi. Misol uchun 2010-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon-Qatar yangi xalqaro transport koridorini tashkil etish to'g'risida 2011-yilning 25-aprelida kelishuv imzolandi. Bu xalqaro yo'l Markaziy Osiyo mamlakatlarini Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan bog'lovchi ko'priq sifatida ko'rildi. Shu bilan birga ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, investitsion munosabatlarni mustahkamlashga Navoiy viloyati xalqaro logistika markazi maqomini olishi ham keng ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday ekan Fors ko'rfazi mamlakatlari O'zbekistonni Markaziy Osiyoni lideri sifatida ko'rishadi va bu mamlakat bilan aloqalarni rivojlantirish orqali Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanadi. O'z navbatida O'zbekiston uchun ham Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan hamkorlik qilish yangi xalqaro savdo-iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari neftni qayta ishlash korxonalarini va neftkimyo gaz sanoatini modernizatsiyalash sohalarida. Hozirgi paytda Markaziy osiyo mintaqasida Xitoy va Afg'oniston

---

<sup>27</sup> Karimov I.A. O'zbekiston-Quvayt: hamkorlikning yangi bosqichi// "Xalq so'zi".-22.06.2008-yil.

ishtirokida yangi transport aloqalarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bu bilan bog'liq ravishda Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston va Xitoy-Qozog'iston-O'zbekiston temir yo'l liniyasi ishga tushishi ko'zda tutilmoqda. Yangi transport tizimida nafaqat Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari balki Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari ham bundan ancha foyda ko'rishadi.

### 2.3.2-jadval

#### Fors ko'rfazi mamlakatlaridan O'zbekistonga kiritilgan investitsiya loyihalarini guruhlanishi, (2005-2012 yillar)

Mamlakatlar	5 mln dollargacha		5,1-15,0 mln dollar		15,1-25,0 mln dollar		25,1 va undan yuqori mln dollar	
	soni	Qiymati	soni	Qiymati	soni	Qiymati		
Saudiya Arabistoni	-	-	1	12,0	1	16,0	1	30,0
BAA	7	19,0	1	14,65	1	19,0	-	-
Ummon	1	5,0	3	33,0	-	-	4	1153,0
Quvayt	2	6,0	1	12,96	5	98,0	-	-
Jami	10	30,0	6	72,61	7	133,0	5	1183,0

Manba: www.mfer.uz malumotlari asosida tayyorlangan

Fors ko'rfazi mamlakatlarini tajribasini o'rganish ancha foydalidir. O'z navbatida hukumatlararo munosabatlarni rivojlantirish O'zbekistonga ham Fors ko'rfazi mamlakatlariga ham moliyaviy-iqtisodiy foyda keltiradi. O'zbekistonda hozirda BAA kapitali ishtirokida tashkil etilgan 81 ta korxonalar mavjud va ulardan 40 tasi 100% xorij kapitali asosida faoliyat yuritadi. 2009-2010 yillar davomida Davlat investitsiya dasturi doirasida O'zbekistonga BAA dan hajmi 24,04 mln AQSh dollari miqdoridagi sarmoya jalb etilgan bo'lib<sup>28</sup>, shu o'rinda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 11.93 mln dollarni tashkil etgan. Shu o'rinda o'zbek-amirlik ishtirokida tashkil etilgan OAJ „Jurabek Laboratories“ ni misol qilishimiz mumkin. O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari tabiiy resurslarga boy hisoblanadi. Bularning hammasi ikki tomon o'rtasida eksport import jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari

<sup>28</sup> www.mfer.uz O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining rasmiy saytidan olingan ma'lumot

o'rtasida iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga qaramasdan lekin haligacha munosabatlar yetarli rivojlanmagan.

**2.3.3-jadval**

**Fors ko'rfazi mamlakatlaridan O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiya loyihalari yo'nalishlari (2005-2012 yillar)**

Yo'nalishlar	Saudiya Arabistoni		BAA		Quvayt		Ummon	
	Soni	Miqdori mln dollar	Soni	Miqdori mln dollar	Soni	Miqdori mln dollar	Soni	Miqdori mln dollar
<b>Ijtimoiy</b>	1	16	2	501,0	3	38,46	1	15,0
<b>Irrigatsiya</b>	1	12,0	3	278,0	3	36,0	-	-
<b>Elektlash</b>					1	20,9		
<b>Transport aloqalari</b>	1	30	4	35,55	1	21,0	-	-
<b>Sanoat</b>	-	-	12	3810,0	-	-	7	1176,0

Manba: www.stat.uz malumotlari asosida tayyorlangan

Mintaqa mamlakatlaridan O'zbekistonga kiritilayotgan sarmoyaning asosiy yo'nalishlari asosan neft va gazni qayta ishlash sanoati, irrigatsiya sohalarini o'z ichiga qamrab olib asosiy investor mamlakatlar BAA va Quvayt mamlakatlari hisoblanadi. 2005-2012 yillar oralig'ida BAA ning sanoatga kiritgan investitsiya hajmi 3810 mln AQSh dollarni ga yetgan bo'lsa, irrigatsiya sohalariga ajratilgan mablag' 278 mln AQSh dollarga yetdi. O'zbekiston mintaqadagi Islom taraqqiyot bankiga 2003-yil 3-sentybrida a'zo bo'lib, ushbu bank tomonidan 2003-2012 yillar mobaynida umumiy qiymati 150 mln dollarga teng moliyaviy xizmatlar ko'rsatildi. Bundan tashqari, ITB O'zbekiston Respyblikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat, O'zsanoatqurilishbanki va Ipoteka banki orqali 2007-2012 yillarda ITB bilan hamkorlik dasturlari doirasida umumiy qiymati 24,0 mln dollarlik kredit liniyalarini amalga oshirdi. O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning hozirgi kundagi darajasi, bir tomondan, har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur hamkorlik ikki tomonning iqtisodiy imkoniyatlariga

to'liq mos kelmaydi. Navoiy erkin iqtisodiy zonasini rivojlantirish borasida bugungi kunda mintaqa mamlakatlari bilan qator loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ummon optik-tola kompaniyasi bilan yiliga 10 ming km uzunlikdagi optik-tola ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari „Ummon oil” kompaniyasi bilan hamkorlikda poletilin trubalar ishlab chiqarish ko'rib chiqilmoqda, shuningdek Surxandaryo viloyatining Sherobod tumanida Ummon investitsion fondi ko'magida sement zavodi qurilishi loyihasi amalga oshirilmoqda.

O'zbek-arab savdo-iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishga quyidagi faktorlar to'sqinlik qiladi:

- Arab mamlakatlarini turli xildagi mintaqaviy, xalqaro birlashmalarga a'zo bo'lganligi boshqa mamlakatlarni arab bozoriga kirishiga qiyinchilik tug'diradi

- Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlaridagi siyosiy inqirozlar

O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari o'rtasida bir qancha loyihalar tuzilgan bo'lsada lekin haligacha bu mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik sekin amalga oshmoqda.

## XULOSA

Saudiya Arabistonining Fors ko'rfazi mintaqasi iqtisodiyotida tutgan o'rni va roliga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishini umumlashtirish quyidagi xulosalarga kelish imkonini yaratdi:

1. Saudiya Arabistoni hukumatining bugungi kundagi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda olib borayotgan iqtisodiy – ijtimoiy siyosati quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan:

- islom boyliklarini e'zozlash va saqlash hamda iqtisodiy taraqqiyotni islom tamoyillariga asoslangan holda olib borish;
- milliy xavfsizlikni va xalqning birligini saqlash;
- ijtimoiy ta'minotni kuchaytirish;
- inson salohiyatini rivojlantirish (razvitie chelovecheskogo potentsiala);
- mintaqaviy xududlar o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot darajalari o'rtasidagi tafovutlarga barham berish;
- milliy iqtisodiyot taraqqiyotida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni yanada kuchaytirish;

2. Neft sohasi milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etsa-da, neft sohasidan tashqari Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining rivojlanishiga sabab bo'lgan quyidagi xususiyatlari aniqlandi va ular quyidagilardan iborat.

- a) mamlakatning iqtisodiy-geografik ahvolining qulayligi
- b) Saudiya Arabistoni iqtisodiyotiga xorijiy texnologiya va xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi.
- c) Neft-gaz mahsulotlarning chetga eksport qilinishi.
- d) Xizmat ko'rsatish sohalari va turizm sohasining rivojlanishi.
- e) Saudiya Arabistoni milliy iqtisodiyotida tabiiy resurslarning, ya'ni neft va gaz xomashyosining ustuvor ahamiyati.
- f) Xukumat tomonidan samarali iqtisodiy isloxlarni va dasturlarni olib borilishi.

3. Saudiya Arabistonining iqtisodiy taraqqiyoti neft xomashyosi eksporti evaziga olingan xorijiy valyutalar tushumining milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Mintaqada Saudiya YaIM ning miqdori bo'yicha yuqori o'rinda turib, 2008-2013-yillar davomida o'rtacha o'sish 5,5-6% ni tashkil etdi va Fors ko'rfazi mintaqasi jami YaIM sining o'rtacha 35-40% ini tashkil etdi.

4. Aholi jon boshiga YaIM ning miqdori bo'yicha Saudiya Arabistoni mintaqada oxirgi o'rinlarda turib, 2008-2013-yillarda o'rtacha 21,8 ming dollarni tashkil etdi. Saudiyada inflyatsiya ko'rsatgichlari oxirgi 10 yillikda o'rtacha 5,5-6% ni tashkil etib, oziq-ovqat narxlari, ta'mirlash va ijara xarajatlari istemol savatchasining asosiy qismini egallagan va bu Saudiyada inflyatsiyaga ta'sir etuvchi asosiy omil xisoblanadi.

5. Saudiya eksport hajmi 2008-2013-yillarda o'rtacha 325,0 mlrd dollarni tashkil etib 2007-yildan boshlab barcha yillarda ijobiy saldo kuzatiladi. Tashqi savdo aylanmasi hajmining YaIM ga nisbati 2007-yilda 43,5% ni, 2010-yilda 56,4% ni va 2013-yilga kelib 70 % ni tashkil etdi. Mineral resurslar eksport tarkibini asosiy qismini egallab, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat maxsulotlarini eksport tarkibidagi ulushi deyarli 0,5% ni qayta ishlash sanoati maxsulotlari 9% ni tashkil etdi. Oxirgi 10 yillikda import hajmi o'rtacha 190,2 mlrd dollarni tashkil etib, import tarkibini asosiy qismini qayta ishlash maxsulotlari (63%), oziq-ovqat maxsulotlari (14%), qora va rangli metallar (10%) egallagan.

6. Iqtisodiyotni tarmoq tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi asosiy o'rinni egallab 2008-2013 yillarda YaIM da sanoat ulushi o'rtacha 60,9% ni, xizmat ko'rsatish o'rtacha 36,9% ni qishloq xo'jaligini ulushi o'rtacha 2,3% ni tashkil etdi. Saudiya iqtisodiyotining asosiy donor tarmog'i neft sektori bo'lib YaIM dagi ulushi oxirgi yillarda o'rtacha 45,6% ni tashkil qilmoqda. Neftdan tashqari xususiy sektorni YaIM dagi ulushi yil sayin oshib bormoqda 2009-yilda 35% bo'lgan bo'lsa 2013-yilga kelib 43% ni tashkil qilmoqda. Hukumat tomonidan xususiylashtirish jarayonini samarali olib borilishi sabab davlat

sektorining ulushi yil sayin pasayib bormoqda xususan 2008-yilda 18% ni tashkil etgan bo'lsa 2013-yilda bu ko'rsatgich 15% bo'ldi.

7. Fors ko'rfazi mintaqasi mamlakatlarini 2000-2012 yillar davomidagi tashqi savdo dinamikasini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak tashqi tovar aylanmasi hajmi eksport va import hisobiga sezilarli darajada o'sdi. Mintaqa eksportida asosiy ulushni Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar mamlakatlari egallagan bo'lsa imortidagi asosiy ulushni Saudiya va BAA tashkil etdi. Oxirgi o'n yillikda fors ko'rfazi mintaqasi yalpi eksport miqdori o'rtacha 4407 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa bunda Saudiyaning ulushi o'rtacha 43% bo'ldi. Saudiya Arabistonini import hajmi mintaqa jami importining 32% ini tashkil etdi va 2008-2013 yillarda o'rtacha 128,5 mlrd dollar bo'ldi.

8. Jahon xo'jaligida eng yirik neft zaxiralariga ega bo'lgan mamlakatlar ro'yxatida „yuqori uchlik“ dan joy olgan Saudiya Arabistonini neft zaxirasi qariyb 36 mlrd tonna deb baholanmoqda. Oxirgi besh yil davomida Saudiya hududlarida 1 kunda o'rtacha 11,2 mln barrel neft qazib olingan va bu OPECga a'zo mamlakatlar tomonidan qazib olinadigan neftning qariyb 1/3 qismini hamda jahon neft ishlab chiqarishining o'rtacha 12,6 % ini tashkil qilgan. OPEC ga a'zo Fors ko'rfazi mamlakatlarini (Quvayt, Qatar, BAA,SAP) 2008-2013 yillarda o'rtacha neft eksport hajmi 491,5 mlrd dollar bo'lgan bo'lsa bunda Saudiya Arabistonini ulushi 54,6% ni tashkil etmoqda.

9. So'nggi yillarda Saudiya Arabistoni va Fors ko'rfazi mamalakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari sezilarli darajada o'sdi. Xususan, 2008-yilga nisbatan Saudiyaning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 31% ga oshib, 30,5 mlrd dollardan ortdi. Shu bilan birga savdo aylanmasi mintaqaning barcha davlatlari bilan bir xil sur'atlarda o'zgarmaganligini ta'kidlash lozim. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida importning eksportga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda o'sganligi kuzatiladi: agar 2008-2013 yillar davomida Saudiyaning eksport qilingan tovar va xizmatlar miqdori 3,4 marta o'sgan bo'lsa, import bo'yicha bu ko'rsatgich 5,4 martani tashkil etgan. Saudiya va Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan

savdo aloqalaridagi ijobiy tendensiya shundan iboratki, unda 2008-yildan boshlab barcha yillarda ijobiy saldo kuzatiladi.

10. Saudiya Arabistonini Fors ko'rfazi mamlakatlariga eksport tarkibida sanoat maxsulotlari asosiy o'rinni egallab, uning 2008-yilda jami eksportdagi ulushi 47,6% ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2013-yilda 60,6% ga yetdi. Saudiyaning mintaqa mamlakatlaridan import tarkibida sanoat maxsulotlari(65%), qishloq xo'jaligi maxsulotlari(13%) asosiy o'rin egallagan. Saudiya Fors ko'rfazida Birlashgan Arab Amirligining asosiy savdo hamkori xisoblanadi. BAA va Saudiya o'rtasidagi tovar aylanmasi 2008-2013 yillarda 11,5 mlrd AQSh dollardan 18,9 mlrd AQSh dollarga o'sganligini e'tirof etish zarur.

11. Fors ko'rfazi mamlakatlari O'zbekistonni Markaziy Osiyoni lideri sifatida ko'rishadi va bu mamlakat bilan aloqalarni rivojlantirish orqali Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanadi. O'z navbatida O'zbekiston uchun ham Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan hamkorlik qilish yangi xalqaro savdo-iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari neftni qayta ishlash va neftkimyo gaz sanoatini modernizatsiyalash sohalarida amalga oshmoqda.

12. O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan aloqalari yetarli darajada rivojlanmagan. 2010-yil ma'lumotlariga ko'ra Fors ko'rfazidan O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiya hajmi nisbatan past ko'rsatgichni 1,5 mlrd AQSh dollariga ham yetmagan, ikki tomon o'rtasidagi tovar aylanmasi 303,9 mln dollarni tashkil etdi. 2008-2013-yillarning oxirida O'zbekiston bilan tovar aylanmasi nisbatan ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar BAA (43,%), ikkinchi o'rinda Ummon (28,7%), undan keying o'rinda Bahrayn (16,3%), butun davr davomida Saudiya Arabistonining ulushi 2% dan oshmadi va Qatar bilan eng yuqori ulush 13% ni tashkil etdi.

13. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun FKADHK, Islom konferensiya tashkiloti, Islom taraqqiyot banki, Quvayt arab fondi, Abu-Dabi rivojlanish fondi kabi tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda hozirda BAA kapitali ishtirokida tashkil etilgan 81 ta korxonalar mavjud va ulardan 40 tasi 100% xorij kapitali asosida faoliyat yuritadi. 2009-2010yillar davomida Davlat investitsiya dasturi doirasida O'zbekistonga BAA dan hajmi 24,04 mln AQSh dollari miqdoridagi sarmoya jalb etilgan bo'lib, shu o'rinda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 11.93 mln dollarni tashkil etgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- T: O'zbekiston, 2012.-40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining „Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida“ gi qonuni. „Xalq so'zi“ gazetasi, 2008-yil 13-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasining „Xorijiy investitsiyalar to'g'risida“ gi qonuni 30 aprel 1998-yil // Soliq to'lovchi jurnali.-6-son.-1998.
4. O'zbekiston Respublikasining „Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida“ gi qonuni. „Xalq so'zi“ gazetasi, 1998-yil 30-aprel.
5. „Davlat statistikasi to'g'risida“ gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.-T., 441-son, 2002-yil, 12 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Farmoni 2003-yil 26-sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Eksport import operatsiyalarini tartibga solish chora tadbirlari ro'g'risida“gi Farmoni 2005-yil 11-mart.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Eksport import operatsiyalarini tartibga solish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari ro'g'risida“gi qarori 2005-yil 19-sentyabr. O'R qonun hujjatlari to'plami 40-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirish istiqbollari to'g'risida“gi qarori 2010-yil 15-dekabr.
10. I.A. Karimov. „Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari“. –T. O'zbekiston, 2009-yil. Bet 25-27.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari to'plami. –T.: O'zbekiston, 2012-yil, 12-tom.

12. Iqtisodiy hamkorlik- mamlakatlarimiz taraqqiyotining garovidir. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar rahbarlarining IV uchrashuvida so'zlangan nutq, 1996-yil 14-may, Ashg'abat shahri.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: “O'zbekiston”, 1999. – 48 b.
14. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari – T.: “O'zbekiston”, 1995. -74 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston-Quvayt: hamkorlikning yangi bosqichi//Xalq so'zi.- 2008.-22 iyun

## **2. Ilmiy adabiyotlar**

### *2.1. O'zbek va rus tilidagi adabiyotlar*

16. Щегорцов В.А., Таран В.А. Мировая экономика. Мировая финансовая система. Международный финансовый контроль: Учебник.. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.
17. Алешин К.А. Развитие производственной инфраструктуры как фактор межарабской интеграции / /Ближний Восток и современность. – М., 2008. – Вып.34. – С.13–24.
18. Ахмадиев Р.Я. Воздействие ресурсного потенциала на социально экономическую модернизацию арабских стран. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2007. – 205 с.
19. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.:Юрист», 2003. – 254 с.
20. Беккин, Р.И. Перспективы экономической интеграции мусульманских стран / Р.И. Беккин / /Проблемы современный экономики. – 2008.– № 2. – С. 382–388.
21. Бондаренко С.В. Реформы в регионе расширенного Ближнего Востока и Северной Африки, российские нефтегазовые компании и проблема политических рисков / / Ближний Восток и современность. – М., 2007. Вып.31. – С.276–285.

22. Бондаренко С.В. Сотрудничество стран Ближнего, Среднего Востока Северной Африки с иностранным капиталом в нефтегазовой сфере // Ближний Восток и современность. – М., 2008. – Вып.34. – С.51–70.
23. Гибадуллин М.З., Вахитова Т.М. Основы исламской экономики: теория и практика хозяйствования. Учебное пособие/ М.З.Гибадуллин. – Казань: ТГГПУ, 2009. – 195 с.
24. Гусаров В.И. Экономическая независимость арабских стран. - М.: изд-во МГОУ, 1993. - 268 с.
25. Емельянова Г.М. Проблемы интеграции в арабском мире // Восток Oriens. - М., 1991. – №4. – С.124-128.
26. Зиядуллаева Л. С. Экономические отношения ОПЕК с развивающимися странами в свете мирового финансово-экономического кризиса // Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида мамлакатлар миллий иқтисодиёти ривожлантиришининг барқарорлигини таъминлаш масалалари. – Тошкент, 2011. – Б.12-13.
27. Иноғомов С. Саудия Арабистони Подшоҳлиги. - Т.: Фан, 1998. – 123 б.
28. Исаев В.А. Арабские страны в международном разделении труда: итоги, проблемы, перспективы (1961-1990). - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1996. – С.60.
29. Кузьмичева Е.В. Экономика арабских стран: традиции и современность. – М.: МАКС Пресс, 2008. – 155 с.
30. Мунавваров З.И. Узбекистан и арабский мир: перспективы сотрудничества. - Т.:Фан, 1997. - 157 с.
31. Озолинг В.В. Экономика Саудовской Аравии. – М.: Наука, 1975, - 206 с.
32. Озолинг В.В. Нефтяные ресурсы Саудовской Аравии и перспективы развития ее нефтяной промышленности в 70-х годах.-В книге.:Природные ресурсы стран Азии и Северной Африки. - М., 1975. – С.79-112.
33. Панасюк М.В. Экономика и внешнеэкономическая деятельность исламских стран Ближнего и Среднего Востока: Учебное пособие / М.В. Панасюк – Казань: ТГГПУ, 2008. – 192 с.

34. Саудовская Аравия. – М.: Институт изучения Ближнего Востока и Израиля, 1998. – 233 с.
35. Фомичев В.И. Международная торговля. – М.:Международные экономические отношения, 2001. – 224 с.
36. Яковлев А.И. Саудовская Аравия и Запад. М.: Наука, 1982. - 208с.
37. Яковлев А.И. Саудовская Аравия и Арамко. / /Народы Азии и Африки. – М., 1979. – №2. – С. 108-117.
37. Ҳамедов И.А., Алимов А.М. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолияти асослари. – Тошкент, 2004. – 321 б.
38. Экспорт и импорт товаров и услуг за январь-декабрь 2011 года”/Статистический бюллетень. Государственный комитет Республики Узбекистан. Ташкент. 2012г. С.-32.

## *2.2. Xorijiy tillardagi adabiyotlar*

39. Al-Ghamri, S.S.A., Industrial development in Saudi Arabia. Ph.D., Wales, Aberyswyth. – P. 600.
42. Saudia Arabia economic report 2014, Tadawul, Bank Audi’s Group Research Department
43. World Population: Fundamentals of Growth (Washington. D.C.: Population Reference Bureau, 2012).P-62.
44. The Kingdom of Saudi Arabia. 2009. С. 195
45. James Griffin, Alvino-Mario Fantini, 2014 World Oil Outlook
46. Kamco Research, Ministry of Economy and Planning & Energy information Administration
47. Global research economy-Saudia Arabia 2012
48. Saudia Arabia economic report 2014, Tadawul, Bank Audi’s Group Research Department
49. SAMA, Ministry of Economy & Planning, Ministry of Finance, Tadawul, & Global Research

50. Global research-GCC economic outlook 2014
51. IMF, Central Department of Statistics & Information
52. UNCTAD handbook of statistics 2014

### **3. Internet-resurlari**

53. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
54. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)
55. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
56. [www.gccstat.org](http://www.gccstat.org)
57. [www.imf.org](http://www.imf.org)
58. [www.wto.org](http://www.wto.org)
59. [www.doingbusiness.org](http://www.doingbusiness.org)
60. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

